

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**AKADEMIK LITSEYLAR PEDAGOG KADRLARI
MALAKASINI OSHIRISH KURSI**

“ONA TILI VA ADABIYOTI” yo‘nalishining

**“TIL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING
DOLZARB MUAMMOLARI”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

BUXORO -2025

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan..

Tuzuvchi:	BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD) N.I.Adizova
Taqrizchi:	Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori, f.f.d.(DSc) D.N.Yo'ldosheva.

Ishchi o'quv dasturi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.
(2024-yil "27" dekabrdagi 5-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	18
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	37
V. GLOSSARIY	79
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:	81

ISHCHI DASTUR

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 3- dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan filolog-pedagoglarni ona tili va adabiyot fanini o'qitishning zamonaviy metodlariga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari:

Modulning maqsadi tinglovchilarni til va adabiyot ta'limi jarayonining yaxlitligi tamoyili, zamonaviy o'qitish usullari va qonuniyatlari, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ona tili va adabiyot darsliklaridagi mavzu va ma'lumotlardan foydalanish, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Modulning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ona tili va adabiyot fanini o'qitishning zamonaviy metodlari bo'yicha tinglovchilarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarning samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;
- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

“Til kompetentligini rivojlantirishning dolzarb muammolari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Til kompetentligini rivojlantirishning mazmunini;
- Til kompetentligi turlari va xususiyatlarini;
- Kompetentlik va kompetentlikning turlarini;
- Til kompetentligini rivojlantirishning metodlarini;
- Ona tili va adabiyot ta'limi tamoyillarini **bilishi** lozim.

Tinglovchi:

- Kompetentlik va kompetentlikning turlarini qo'llash;
- Til kompetentligini rivojlantirishning metodlaridan foydalanish;
 - Lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha mashqlar bajarish;
- Til kompetentligini rivojlantirish yechimlarini topish;
- Fonetik, leksik, morfologik kompetensiyalarni zamonaviy texnologiya asosida rivojlantirish;
- Til kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil etish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- Ona tili va adabiyot fanini o'qitishning samarali metodlarini fan xususiyatiga mos holda kengaytira olishi;
- Nutqiy (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) kompetensiyani rivojlantirishning dolzarb muammolari doirasida xorijiy tajribalarni amaliyotga tadbiq etish;
- O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi til muammolari, metodikada yuzaga keladigan qiyinchiliklarning oldini olish;
- Ona tili va adabiyot faniga innovatsion yondashuvlar, o'qitishning zamonaviy metodlari bo'yicha kreativ kasbiy **kompetensiyaga** ega bo'lishi lozim.

1.1. Til kompetentligini rivojlantirishning dolzarb muammolari.

Til kompetentligini rivojlantirishning mazmuni. Til kompetentligi turlari va xususiyatlari. Kompetentlik va kompetentlikning turlari. Til kompetentligini rivojlantirishning metodlari. Til kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar. Nutqiy (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) kompetensiyani rivojlantirishning dolzarb muammolari doirasida xorijiy tajribalar. O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi til muammolari, metodikada yuzaga keladigan qiyinchiliklar. Til kompetentligini rivojlantirish yechimlari. Fonetik, leksik, morfologik kompetentsiyalami zamonaviy texnologiya asosida rivojlantirish. Kognitolingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyani shakllantiruvchi usullar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil ta’lim
			Jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	
1.	Kompetentlik va uning turlari. Til kompetentligini rivojlantirish metodlari	2	2	2		
2.	Nutqiy (tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish) kompetensiyani rivojlantirishning dolzarb muammolari doirasida xorijiy tajribalar.	2	2	2		
3.	Grammatik (fonetik, leksik, morfologik...) kompetensiyalarni zamonaviy texnologiya asosida shakllantirish	2	2		2	
4.	Kognitolingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyani shakllantiruvchi usullar	2	2		2	
Jami:		8	8	4	4	

NAZARIY MASHG'ULOT MAVZULARI

1-mavzu: Kompetentlik va uning turlari. Til kompetentligini rivojlantirish metodlari. (2 soat ma'ruza)

Til kompetentligini rivojlantirish metodlari. Til kompetentligini rivojlantirishning mazmuni. Til kompetentligi turlari va xususiyatlari. Kompetentlik va kompetentlikning turlari. Til kompetentligini rivojlantirishning metodlari. Til kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar. Muloqot shakllari va nutqiy faoliyat. O'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasini DTS darajasida shakllantirish usullari.

2-mavzu: Nutqiy (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) kompetensiyani rivojlantirishning dolzarb muammolari doirasida xorijiy tajribalar. (2 soat ma'ruza)

Nutqiy (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) kompetensiyani rivojlantirishning dolzarb muammolari doirasida xorijiy tajribalardan foydalanish. O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi til muammolari, metodikada yuzaga keladigan qiyinchiliklar. Til kompetentligini rivojlantirish yechimlari. Til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mustaqil, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, o'quvchilarda og'zaki va yozma savodxonlik, o'qish, tinglab tushunishni shakllantirish orqali ularning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish.

AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI

1-mavzu: Grammatik (fonetik, leksik, morfologik...) kompetensiyalarni zamonaviy texnologiya asosida shakllantirish. (2 soat amaliy)

Til kompetentligini rivojlantirish yechimlari. Fonetik, leksik, morfologik kompetensiyalarni zamonaviy texnologiya asosida rivojlantirish. O'quvchi faoliyatini zamonaviy ta'lim usullari, o'quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish, so'z boyligini oshirish, tafakkur doirasini kengaytirish, nutqiy salohiyatini shakllantirish. O'quv mashg'ulotlarini til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash, qiyoslash, umumlashtirish asosida olib borib, o'quvchining mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish. Fonetik, leksik, morfologik bilimlarini shakllantirishga doir mashqlar bajarish.

2-mavzu: Kognitolingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyani shakllantiruvchi usullar. (2 soat amaliy)

Kognitolingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyani shakllantiruvchi usullar. Pragmatika va uning mazmun-mohiyati. Pragmatikaning inson ijtimoiy faoliyatini oʻzida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon boʻlishi. U lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shugʻullanuvchi va uning asosida lisoniy harakatdagi koʻzlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi oʻrtasidagi munosabatni ifodalovchi vosita ekanligi. Yaʼni, pragmatika (yun. pragma, pragmatos — ish, harakat) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini oʻrganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini oʻzlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini oʻrganuvchi fan tarmogʻi. Pragmalingvistika rivojida kognitologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika sohalarining oʻzaro taʼsirini misollar asosida kuzatish.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

I. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: Oʻzbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. 1-jild. – T.: Oʻzbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: Oʻzbekiston, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulugʻ xalqning ishi ham ulugʻ, hayoti yorugʻ va kelajagi farovon boʻladi. 3-jild.– T.: Oʻzbekiston, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: Oʻzbekiston, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi – T.: Oʻzbekiston, 2021.-464 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 2023.
8. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Taʼlim toʻgʻrisida”gi OʻRQ-637-sonli Qonuni.
9. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga moʻljallangan “Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” gi PF-60-son Farmoni.
10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PF-5850-son Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi. "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3290-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 3-dekabrdagi "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4910-son Qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi
17. "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" gi 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

18. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b.
19. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi - Farg'ona: 2016.-108 b.
20. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik.- T.:Akadem.nashr, 2012. - 416 b.
21. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. - T.: Fan, 2013. - 136 b.
22. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. -Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. -41b.
23. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. - T.: Nodirabegim, 2020.
24. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili - Buxoro: BuxDU, 2000. -36 b.
25. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. -T.: Academnashr, 2013. - 174 b.
26. Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: fil.fan.dok-ridis. avtoref. -Toshkent: O'z.R. FA TAI, 2000-47b.
27. Safarov Sh. Kogitiv tilshunoslik. -Jizzak: Sangzor, 2006. -91b.
28. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, -T.: «Fan», 1992, 254 b.

IV. Internet saytlar

29. <http://edu.uz>
30. <http://lex.uz>
31. <http://lib.bimm.uz>
32. <http://ziyonet.uz>
33. <http://natlib.uz>

I. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Kompetentlik va uning turlari. Til kompetentligini rivojlantirish metodlari.

Reja:

1. Til ta'limida kompetensiyaviylik.
2. Lingvistik va nutqiy kompetensiya.
3. Lingvistik kreativlik kompetensiyasi.

Jamiyat rivojlangan sari fan va ta'lim oldiga yangidan-yangi muammolarni qo'yadi. Bu muammolarni yechish harakati bilan faqat ilmiy paradigmalargina emas, balki o'qitish paradigmalari ham o'zgarib boradi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv predmetining o'zlashtirishlariga qaratilgan ta'lim paradigmasidan kompetensiyali ta'lim tizimiga o'tish harakati kuchaydi. Shuning uchun ham jahon pedagogikasida kompetentli shaxs tarbiyasi, kompetentli o'qitish muammolari ko'tarilmoqda. Shu o'rinda Kompetensiya nima? Kompetentli shaxs deganda nima tushuniladi? degan savollarning tug'ilishi tabiiy.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da kompetensiya – (lotincha competere – layoqatli, munosib bo'lmoq) so'zining ikki ma'noda qo'llanilishi ko'rsatiladi: 1. Muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2. Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi.

Mazmunan kompetensiya “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

Kompetentli shaxs deganda, ma'lum sohada kelib chiqqan muammoni hal qilishni o'z zimmasiga olish qobiliyatiga ega bo'lgan, ma'lum vazifa qo'yish va uni hal qilishda mustaqillik ko'rsata oladigan shaxs tushuniladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Ta'lim jarayoniga “kompetentlik” tushunchasining kiritilishi shu kunga qadar o'qitish amaliyotida uchraydigan nazariy bilim bilan undan amaliyotda foydalanish o'rtasidagi uzilish, ya'ni o'quvchi nazariy bilimga ega bo'lgan holda, undan muammoli vaziyatlarda foydalanishga qiynalish holatlarini bartaraf qiladi.

Demak, an'anaviy ta'limda ustuvor bo'lgan "bilish paradigmasi" o'rniga "bilimlardan muammoli vaziyatlarda o'rinli foydalanish" paradigmasi ustuvor paradigмага aylanmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, kompetensiyaviy yondashuv "bilish paradigmasini" inkor qilmagan holda, "uni muammoli vaziyatlarda qo'llay bilish" paradigmasiga bo'ysunadigan ikkinchi plandagi paradigмага aylantiradi. Lekin ikkinchi paradigma birinchi paradigmasiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Demak, "bilish paradigmasi" bilan "qo'llash paradigmasi" o'zaro bog'liq paradigmalardir.

Kompetensiyaviy ta'lim o'quvchilarning ma'lum bilimlar yig'indisini egallashnigina emas, balki shaxsni rivojlantirish, anglash va yaratish qobiliyatlarini o'stirishni mo'ljallaydi. Shunga muvofiq, ta'lim maqsadi, mazmuni ustuvorligi ham o'zgaradi: bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantirishdan asosiy e'tibor egallangan bilim, malaka, ko'nikmalarni hayotda amaliy masalalarni hal qilishda erkin qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Kompetensiya tushunchasining qisqacha tarixi quyidagi bosqichlardan iborat:

Birinchi bosqich – 1960–1970 yillar. Tilni o'rganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda D. Xayms tomonidan «kommunikativ kompetensiya» tushunchasi kiritiladi.

Ikkinchi bosqich – 1970–1990 yillar. Kompetensiya/kompetentlik kategoriyalarini tilni ayniqsa ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o'rganishda foydalanila boshlandi. Bu paytda «ijtimoiy kompetensiya kompetentlik» tushunchasining mazmuni ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqich – 1990 va keyingi yillarda kompetensiyaviy yondoshuv, kasbiy ta'limga, umumta'lim fanlariga va boshqa yo'nalishlarda qo'llanila boshlandi. O'zbekistonda dastlab Birinchi Prezidentimiz farmoniga muvofiq, chet tillarni o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan 2012 yil 12 dekabr farmoniga muvofiq ilk bor kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan DTS ishlab chiqilib 2013/2014 o'quv yilidan bosqichma bosqich amaliyotga joriy etish boshlandi.

Kompetentlikka bag'ishlangan ayrim adabiyotlarda umumiy va kasbiy kompetentlik farqlanadi va kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan shaxs umumiy kompetentlikka ham ega bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi.

Umumiy kompetentlikka quyidagi sifatlar kiritiladi:

- estetik (yuqori emotsional barqarorlikka, yaxshi didga ega bo'lishlik);
- kommunikativ (kirishimlilik, xushmuomalalik, atrofdagilarning mehrini qozonishlik);
- kreativlik (o'z ishiga ijodiy yondasha olishlik).

Bunday umumiy kompetensiyalar qatoriga ayrim olimlar (N.Gurdil) axborot bilan ishlash kompetensiyasi, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalarni ham qo'shadi.

Ko'rsatilgan kompetensiyalar barcha o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lib, alohida-alohida o'quv predmetlariga xos bo'lgan kompetensiyalar bilan hamkorlikda amal qiladi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarga quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi: 1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish; 2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash; 3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish; 4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; 5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish; 6) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Dunyo bo'yicha o'zaro kelishib olingan yagona tayanch kompetensiyalar ro'yxati yo'q. Kompetensiyalar, eng avvalo jamiyatning fuqarolarini tayyorlash uchun berilgan buyurtma bo'lganligidan, bunday ro'yxat ma'lum davlat yoki regiondagi jamiyatning o'zaro kelishilgan nuqtai nazari bilan belgilanadi. Shunga ko'ra kompetensiyalarning Yevropa varianti va Rossiya variantlarini qaraylik.

“Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” nomli Yevropa kengashi simpoziumida belgilangan tayanch kompetensiyalar:

O'rganishi kerak:

- tajribadan foydali biror narsani chiqarib olishi;
- o'z bilimlari orasidagi o'zaro aloqani tashkil qilish va ularni tartiblashtirish;
- o'zining shaxsiy o'rganish usullarini tashkil qilish(o'rnatish);
- muammolarni yecha olish;

Izlash:

- mustaqil bilim olish bilan shug'ullanish;
- turli ma'lumotlar bazasini izlash;
- tevarak atrofdan surishtirish;
- ekspertdan maslahat olish;

axborot olish;

- xujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash(klassifikatsiyalash).

O'ylash:

- o'tgan va hozirgi voqealar orasidagi o'zaro bog'liqlikni topmoq;
- jamiyat rivojlanishining u yoki bu aspektiga tanqidiy yondoshmoq;
- murakkablik va o'ziga bo'lgan ishonch yo'qolishiga qarshi turmoq;
- baxslashuvlarda o'z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lmoq;

• o'qiyotgan va ishlayotgan joydagi siyosiy va iqtisodiy muhitning muhimligini anglash;

• salomatlik, iste'mol qilish, hamda tasviriy san'at va adabiy asarlarini baholay bilish.

Hamkorlik qilish:

- Guruhda ishlash va hamkorlik qila olish;
- Qarorlar qabul qilish –anglashilmovchilik va janjallarni bartaraf etish;
- Kelisha olish;
- Shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

Ishga kirish:

- Loyihada qatnashish;
- Javobgarlikni olish;
- Guruhga yoki jamoaga kirish hamda o'z hissasini qo'shish;
- Hamkor ekanligini isbotlash;
- O'z ishini tashkil qila bilish;
- Hisoblash va modellashtirish asboblardan foydalana bilish.

Ko'nikish:

- Yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish;
- Tez o'zgarishlar oldida moslashuvchanligini isbotlash;
- Yangi yechimlarni topa bilish.

Tayanch kompetensiyalarning Rossiya varianti:

- - Qadr-qimmat, e'tiqod kompetensiyasi
- - Umummadaniy kompetensiyalar
- - O'quv-o'rganish kompetensiyasi
- - Axborot kompetensiyasi.
- - Kommunikativ kompetensiya
- - Ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi
- - Shaxsni takomillashtirish kompetensiyasi

O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ishlab chiqilgan tayanch kompetensiyalari:

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli

diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ona tili o'quv predmetida quyidagi kompetensiyalar tayanch kompetensiya sifatida loyihaga kiritilgan:

- Mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasi
- Nutqiy(Lingvistik) kompetensiya
- Sotsiolingvistik kompetensiya
- Pragmatik kompetensiya

Quyidagi kompetensiyalar ona tili o'quv predmeti uchun tasdiqlangan tayanch kompetensiyalardir.

1. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):

2. Lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid): Hozirgi vaqtda "til kompetensiyasi" atamasi ostida ma'lum bir tilda gaplashuvchi jamiyat a'zolarining bir-biri bilan muloqotga kirishishlari uchun zarur bo'lgan til malakasi majmuasi va o'quv predmeti sifatidagi til fani haqidagi bilimi tushuniladi.

Til kompetensiyasi o'quvchidan o'zi mansub bo'lgan yoki o'rganayotgan til va uning me'yorlarini bilishni taqozo qiladi. Demak, til kompetensiyasi u yoki bu til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir.

Til uslubchilarining ta'kidlashlaricha, til kompetensiyasi tuzilishini ikki asosda – lingvistik va psixologik tamoyillar asosida belgilash mumkin. Lingvistik tamoyilga ko'ra, til bir necha sohalarning (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik ekan, til kompetensiyasi ham shu sohalarga xos kichik sistemalarning o'zlashtirilishiga qarab belgilanadi. Shunga ko'ra til kompetentligi deganda, insonning til ongida mavjud bo'lgan barcha kichik sistemalarning bir butunligi va undan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

Ko'rinadiki, tilning sathli strukturasi til kompetensiyasi strukturasi belgilaydi. Demak, til kompetensiyasini til struktur bir butunligiga qiyosan belgilash mumkin bo'ladi. Bunga muvofiq, til kompetensiyalari fonetik, leksik, morfologik, sintaktik kompetensiyalarga ajratiladi. Tilning tovush imkoniyatlaridan vaziyatga qarab to'g'ri va o'rinli foydalanish malaka va ko'nikmasi fonetik kompetensiya; sinonim, omonim, antonimlar dan; metafora, metonimiya, sinekdoxalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish malaka va ko'nikmasi leksik kompetensiya; qo'shimchalar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi kabilardan foydalanish malaka va ko'nikmasi morfologik kompetensiya; sintaktik qoliplar, gapda so'zlar tartibidan maqsadga muvofiq foydalanish malaka va ko'nikmasi sintaktik kompetensiyani shakllantiradi.

2-mavzu. Nutqiy (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) kompetensiyani rivojlantirishning dolzarb muammolari doirasida xorijiy tajribalar.

Reja:

1. Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish ko‘nikmalari*) va ularning o‘ziga xos jihatlari.
2. O‘quvchilarning o‘qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna olish darajalari. Rasmlar asosida va o‘qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha olishi.
3. Nutq jarayonida o‘zlashtirilgan yangi so‘zlarni og‘zaki nutqda qo‘llay olish. Matndagi so‘zlarni qo‘shib, gap ohangiga rioya qilib ravon va ifodali o‘qiy olish.
4. Ijodiy matn tayyorlash qobiliyati. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyaga egalik darajasi.
5. Lingvistik kompetensiya va uning qismlari. Fonetik, leksik, morfologik, sintaktik kompetensiyalar.

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarga innovatsion, ilg‘or usullar va metodlarni qo‘llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta‘lim berish hamda o‘quvchilarning ta‘limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta‘lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947- sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasbhunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o‘quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Shu bois ilm berishda sharq allomalari mustaqil fikrlash, fikrni bayon qilish, nutq tuzish jarayonidagi muhim jihatlarni qamrab oluvchi ilmiy qarashlarini qayd qilganlar va shu bilan bir qatorda, nutqning ilmiy- nazariy tomoni lug‘atlarda, darslik va o‘quv va metodik qo‘llanmalarda izoh berilib, atroflicha yoritilgan.

Farobiyning fikricha, qanday qilib ta‘lim berish va ta‘lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya‘ni substantsiya va

aktsidentsiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substantsiya va aktsidentsiyaning joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli soʻzlarni va nutqni qanday tuzishni oʻrgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir. U maʼlum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni oʻrgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz, hamda nima toʻgʻri va nima yolgʻon ekanligi haqida hukm chiqaramiz”.

Oʻquvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi soʻz zahirasini oʻz nutqi orqali harakatga keltiradi. Ona tili fanini oʻqitishning asosiy vazifasi sifatida “oʻquvchi shaxsini fikrlashga, oʻzgalar fikrini anglashga, oʻz fikrini ogʻzaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, oʻquvchida grammatikaga oid oʻzlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, soʻzning tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish, ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda toʻgʻri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat” ekanligi belgilangan.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim – oʻquvchilarning egallangan bilim, koʻnikma va malakalarini oʻz shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qoʻllay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan taʼlim oʻquvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega boʻlish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan oʻz faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sogʻlom raqobat hamda umummadaniy koʻnikmalarini shakllantirdi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tayanch va fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning shakllantirilishi belgilab berilgan.

Kompetensiya –fan boʻyicha egallagan nazariy bilim, amaliy koʻnikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qoʻllay olishdir.

2020-yildan boshlab Milliy oʻquv dasturi loyihasi doirasida xalqaro tajriba hamda mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda, umumtaʼlim maktablari uchun 22 ta fandan, xususan, “Ona tili va oʻqish savodxonligi” fanidan zamonaviy taʼlim standartlari, oʻquv dasturlari hamda ilgʻor metodikalarni, baholash tizimini ishlab chiqish maqsad qilingan. Milliy oʻquv dasturi asosida 2020-2021-yildan boshlab umumtaʼlim maktablarida Ona tili va Oʻqish fanlarining birlashuvi natijasi “Ona tili va oʻqish savodxonligi” fani joriy etildi. Ikki fanning birlashuviga asosiy sabab ona tilini oʻqitishdagi yondashuvning oʻzgarishi boʻldi. Endilikda grammatika va yodlashga asoslangan taʼlimdan tinglab tushunish, oʻqib tushunish, fikrni ogʻzaki va yozma bayon qilishdan iborat til oʻrgatishning 4 koʻnikmasini rivojlantirishga qaratilgan taʼlim shakliga oʻtildi. Ona tili fani asosida oʻquvchida shakllantiriladigan koʻnikmalardan biri bu oʻqib tushunishdir. Natijada oʻquvchi darslikda qoidalar oʻrniga koʻproq matnlar bilan ishlaydi va ularda oʻqib tushunish koʻnikmasi rivojlanadi. Oʻquvchida oʻqib tushunish koʻnikmasini Ona tili fani

rivojlantirishi hisobiga o'z-o'zidan O'qish faniga zarurat qolmaydi.

2020-yildan boshlab Milliy o'quv dasturi loyihasi doirasida xalqaro tajriba hamda mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda, umumta'lim maktablari uchun 22 ta fandan, xususan, "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanidan zamonaviy ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda ilg'or metodikalarni, baholash tizimini ishlab chiqish maqsad qilingan. Milliy o'quv dasturi asosida 2020-2021-yildan boshlab umumta'lim maktablarida Ona tili va O'qish fanlarining birlashuvi natijasi "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani joriy etildi. Ikki fanning birlashuviga asosiy sabab ona tilini o'qitishdagi yondashuvning o'zgarishi bo'ldi. Endilikda grammatika va yodlashga asoslangan ta'limdan tinglab tushunish, o'qib tushunish, fikrni og'zaki va yozma bayon qilishdan iborat til o'rgatishning 4 ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim shakliga o'tildi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. O'quvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, bo'sh o'rinlarni to'ldirishlari, o'qib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni bo'yashlari mumkin. Amaldagi boshlang'ich sinf ona tili darsliklari asosida o'quvchilardagi quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish ko'zda tutiladi. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish): -O'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi; mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi, harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni o'qiy oladi; so'zda nechta tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishini bir unli tovush bo'g'in hosil qilishini, ya'ni o-na, u-ka, a-ka kabi bo'g'inga bo'la oladi, harflar birikmalari ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inga bo'la oladi, x va h tovushli so'zlarni to'g'ri yoza oladi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, mash'al, ma'qul, ta'lim, Jur'-at, ta'- zim kabi tutuq belgisi so'zlarni bo'g'inga bo'lib yoza oladi, lug'at, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasmi diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida ko'chira oladi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili o'qitishning asosiy maqsadi turli vaziyatlarda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, og'zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo'lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgarlar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish ekanligi ko'p bora ta'kidlanadi.

Demak, ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchini fikrlashga, o'zgarlar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon

qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me'yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish; tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili ta'limining mazmuni o'zgarmoqda. Biz yillar davomida ona tili ta'limi orqali o'quvchilarga grammatik qonun-qoidalarini, nazariy bilimlarni o'rgatib keldik. Endilikda grammatika bilan bir qatorda o'quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ko'proq e'tibor berishimiz lozim. Bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) ni har bir darsda amaliy qo'llash va o'quvchida bunga nisbatan ko'nikma shakllantirish darkor. Ana shu fikrlarning isboti sifatida umumta'lim muassasalarining 2-3-sinflari uchun 2022-yilda nashrdan chiqqan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligini keltirish mumkin. Avvalo, mazkur darsliklar hozirgi zamon bola psixologiyasiga mos ravishda tuzilgan: mashqlardan qonuniyat yaratilishiga e'tibor qaratilgan. O'quvchi matn bilan tanishgach, o'z fikr-mulohazalari asosida xulosaga olib kelingan va nazariy matn berilgan. Mavzularni kundalik hayotga yaqinlashtirish barobarida muomala madaniyati, odob-axloq me'yorlari, milliy qadriyatlarni ulug'lovchi o'zbekona dunyoqarash bilan uyg'un matnlar berilgan. Masalan, 2-sinf darsligidagi "Oshxonamiz ramzi" audiomatni (6-bet). Ushbu audiomatndan so'ng o'quvchilarning fikrlashga, o'ylashga undovchi topshiriq berilgan.

Bu orqali o'quvchi eshitgan ma'lumotidan xulosani o'zi chiqaradi. "Chumolining jasorati" (3-mashq), Bu mashq orqali o'quvchilarning o'qib tushunish malakalari rivojlantiriladi. Bunda ular bir vaqtning o'zida ham maqollarning mazmuni haqida, ham ulardan qaysi biri hikoya g'oyasiga mosligi haqida fikr yuritadilar. Ona tili va o'qish savodxonligi darslari jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda, o'quvchilarning nutqini ostirish maqsadga muvofiqdir. O'qish fanidan qiziqarli savol-topshiriqlar tuzish va o'tiladigan mavzular bo'yicha mustahkamlashdan iborat. Bu boshlang'ich sinf o'quv -chilarining o'qishiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularning fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishgan iborat. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning har xil usullari va shakllarini topish va uni tadbqiq etish ilimiy tadqiqotning ko'zlangan asosiy maqsadidir. Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'qituvchilar darsda ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta'lim muassasasida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli o'quv-metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning katta zahirasi mavjud. Sifatli ta'limiy faoliyatni multimedia materiallari orqali tashkil etish an'anaviy uslublarga nisbatan afzalligini o'qituvchilar anglab yetdi. Boshlang'ich sinflarda ona Vatanga

muhabbat va sadoqat, ona tilini o'qitishda tilga hurmat, shu bilan birga o'zbek tilining qanchalik boy til ekanligini anglash, o'qish va orfografik til me'yorlariga amal qilishni dars jarayonida tadbqiq etish lozim. Ona tili va O'qish fanlarining qiziqarli o'tishi, interaktiv metodlarning dars jarayonida foydalanishda kompetensiyaviy yondashish lozim.

Ona tili o'quv predmetida quyidagi kompetensiyalar tayanch kompetensiya sifatida loyihaga kiritilgan:

- Mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasi
- Nutqiy(Lingvistik) kompetensiya
- Sotsiolingvistik kompetensiya
- Pragmatik kompetensiya

Quyidagi kompetensiyalar ona tili o'quv predmeti uchun tasdiqlangan tayanch kompetensiyalardir.

1. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):

2. Lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid): Hozirgi vaqtda "til kompetensiyasi" atamasi ostida ma'lum bir tilda gaplashuvchi jamiyat a'zolarining bir-biri bilan muloqotga kirishishlari uchun zarur bo'lgan til malakasi majmuasi va o'quv predmeti sifatidagi til fani haqidagi bilimi tushuniladi.

Til kompetensiyasi o'quvchidan o'zi mansub bo'lgan yoki o'rganayotgan til va uning me'yorlarini bilishni taqozo qiladi. Demak, til kompetensiyasi u yoki bu til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir.

Til uslubchilarining ta'kidlashlaricha, til kompetensiyasi tuzilishini ikki asosda – lingvistik va psixologik tamoyillar asosida belgilash mumkin. Lingvistik tamoyilga ko'ra, til bir necha sohalarning (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik ekan, til kompetensiyasi ham shu sohalarga xos kichik sistemalarning o'zlashtirilishiga qarab belgilanadi. Shunga ko'ra til kompetentligi deganda, insonning til ongida mavjud bo'lgan barcha kichik sistemalarning bir butunligi va undan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

Ko'rinadiki, tilning sathli strukturasi til kompetensiyasi strukturasi belgilaydi. Demak, til kompetensiyasini til struktur bir butunligiga qiyosan belgilash mumkin bo'ladi. Bunga muvofiq, til kompetensiyalari fonetik, leksik, morfologik, sintaktik kompetensiyalarga ajratiladi. Tilning tovush imkoniyatlaridan vaziyatga qarab to'g'ri va o'rinli foydalanish malaka va ko'nikmasi fonetik kompetensiya; sinonim, omonim, antonimlar dan; metafora, metonimiya, sinekdoxalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish malaka va ko'nikmasi leksik kompetensiya; qo'shimchalar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi kabilardan foydalanish malaka va ko'nikmasi morfologik kompetensiya; sintaktik qoliplar, gapda so'zlar tartibidan maqsadga muvofiq foydalanish malaka va ko'nikmasi sintaktik kompetensiyani shakllantiradi.

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarga innovatsion, ilg'or usullar va metodlarni qo'llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berish hamda o'quvchilarning ta'limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan

asosiy vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947- sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Shu bois ilm berishda sharq allomalari mustaqil fikrlash, fikrni bayon qilish, nutq tuzish jarayonidagi muhim jihatlarni qamrab oluvchi ilmiy qarashlarini qayd qilganlar va shubilan bir qatorda, nutqning ilmiy- nazariy tomoni lug'atlarda, darslik va o'quv va metodik qo'llanmalarda izoh berilib, atroflicha yoritilgan.

Farobiyning fikricha, qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya'ni substantsiya va aktsidentsiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substantsiya va aktsidentsiyaning joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir. U ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz, hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz". O'quvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi so'z zahirasini o'z nutqi orqali harakatga keltiradi.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi sifatida "o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, o'quvchida grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish, ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat" ekanligi belgilangan.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga

asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantirdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch va fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning shakllantirilishi belgilab berilgan.

Kompetensiya –fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

2020-yildan boshlab Milliy o'quv dasturi loyihasi doirasida xalqaro tajriba hamda mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda, umumta'lim maktablari uchun 22 ta fandan, xususan, "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanidan zamonaviy ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda ilg'or metodikalarni, baholash tizimini ishlab chiqish maqsad qilingan.

Milliy o'quv dasturi asosida 2020-2021-yildan boshlab umumta'lim maktablarida Ona tili va O'qish fanlarining birlashuvi natijasi "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani joriy etildi. Ikki fanning birlashuviga asosiy sabab ona tilini o'qitishdagi yondashuvning o'zgarishi bo'ldi. Endilikda grammatika va yodlashga asoslangan ta'limdan tinglab tushunish, o'qib tushunish, fikrni og'zaki va yozma bayon qilishdan iborat til o'rgatishning 4ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim shakliga o'tildi.

Ona tili fani asosida o'quvchida shakllantiriladigan ko'nikmalardan biri bu o'qib tushunishdir. Natijada o'quvchi darslikda qoidalar o'rniga ko'proq matnlar bilan ishlaydi va ularda o'qib tushunish ko'nikmasi rivojlanadi. O'quvchida o'qib tushunish ko'nikmasini Ona tili fani rivojlantirishi hisobiga o'z-o'zidan O'qish faniga zarurat qolmaydi.

2020-yildan boshlab Milliy o'quv dasturi loyihasi doirasida xalqaro tajriba hamda mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda, umumta'lim maktablari uchun 22 ta fandan, xususan, "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanidan zamonaviy ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda ilg'or metodikalarni, baholash tizimini ishlab chiqish maqsad qilingan.

Milliy o'quv dasturi asosida 2020-2021-yildan boshlab umumta'lim maktablarida Ona tili va O'qish fanlarining birlashuvi natijasi "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani joriy etildi. Ikki fanning birlashuviga asosiy sabab ona tilini o'qitishdagi yondashuvning o'zgarishi bo'ldi. Endilikda grammatika va yodlashga asoslangan ta'limdan tinglab tushunish, o'qib tushunish, fikrni og'zaki va yozma bayon qilishdan iborat til o'rgatishning 4 ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim shakliga o'tildi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida

tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. O'quvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, bo'sh o'rinlarni to'ldirishlari, o'qib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni bo'yashlari mumkin. Amaldagi boshlang'ich sinf ona tili darsliklari asosida o'quvchilardagi quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid kommunikativ, innovatsion, kreativ yondashuvlarning asosiy omillaridan biri og'zaki va yozma nutqini adabiy til me'yorlari asosida rivojlantirish hisoblanadi. Bu jihat, o'quv faoliyatining jamoaviy xususiyati va bilimlarni qat'iy o'zlashtirilishi natijasida, nutqiy ko'nikmalarga ega bo'lish, o'quvchilarda tinglab tushunish, eshitish, so'zlash, yozish ko'nikmalarining sub'ektiv munosabat bildirish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalarni nazorat qilish, ta'lim oluvchining intilishlari va qobiliyatlari, uning hayotiy tajribalaridan chiqargan xulosalarni inobatga olish kabi nutqiy vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim jarayoniga tatbiq qilingan 10-11-sinf "Ona tili" darsliklari shakl va mazmun jihatdan yangilandi. Mazkur darsliklarning o'quvchilar uchun afzal tomonlaridan biri mavzular bosqichma-bosqich berilgan bo'lib, nazariy ma'lumotlar keyingi mavzularni o'rganish uchun asosiy o'rin tutgan. 10-sinf "Ona tili" darsligida nutq uslublari, morfologik ko'rsatkichlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari uslubiyati, har bir uslubga xos bo'lgan leksik va morfologik, sintaktik birliklarning ishlatilish o'rinlari, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, undalma va kirishlar, qo'shma, ko'chirma, o'zlashtirma gaplar uslubiyati to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan. 11-sinf darsligida esa, nutq va uning madaniyligini ta'minlovchi kommunikativ sifatlar yuzasidan umumiy tushunchalar, nutq kommunikativ sifatlarining har biriga tegishli alohida nazariy ma'lumotlar hamda mavzularni mustahkamlashga doir mashq va topshiriqlar berilib, turli lug'atlardan og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi so'zlar izohi, tilimizga kirib kelgan yangi so'zlar ma'nosi keltirilgan.

Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish innovatsion metodlar asosida amalga oshirildi. Jumladan, ona tili darslarida innovatsion, interfaol ta'lim texnologiyalar ("Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar ustida ishlash" metodi, "Onlayn topshiriq berish" metodi, "Savodxon" metodi, Grammatik-assotsiativ metod, va "Qiziqarli taqdimot", "Zukkolik", "Sub'ektiv munosabat", "Ma'nosiga izoh", "Bahs-munozara" o'yinlari) tushunib so'zlash, ifodali o'qish, adabiy til

me'yorlariga amal qilib yozma nutqini o'stirish uchun samarali natijalar beradi.

SHuningdek ona tili darslarida:

- “Savodxon” metodi yordamida imloviy me'yorlarni aniqlashtirish;
- “Grammatik-assotsiativ metod” metodidan foydalanib o'quvchilarni mavzu doirasida tilshunoslik asoslari bo'yicha grammatik qoidalar negizida matn turlarini tuzish va yozish;
- “Onlayn topshiriq berish” metodi vositasida masofaviy ta'limda lingvistik kompetensiyalar negizida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish;
- “Qiziqarli taqdimot” o'yinini o'tkazish orqali rasmiy matnning rekvizitlariga rioya qilib tuzish; bahs-munozara asosida davra suhbatini tashkil etish;
- “Ma'nosiga izoh” o'yini yordamida o'quvchilarning olib borilayotgan dars mashg'ulot doirasida so'zlarning ko'chma ma'nolarini og'zaki va yozma nutqida foydalanish mumkin.

Darsliklarni o'rganib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga asosli ravishda ona tili darslarida o'quvchilarning erkin so'zlash qobiliyatining to'liq holatda rivojlanmagani, tinglovchi va so'zlovchining nutqiy vaziyatlarda tilning turli sath birliklari, leksik, morfologik, sintaktik birliklarini qo'llash mahorati, adabiy til me'yorlariga muvofiq mustaqil matn tuzish va yozish ko'nikmalariga etarli darajada ega emasligini inobatga olgan holda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun, ularda nutqning madaniyligini ta'minlovchi kommunikativ sifatlari nutqida ishlatishni mukammal o'rganish lozim.

1.1. Nutqiy kompetensiyaning mazmun-mohiyati va elementlari

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish): - O'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi; mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi, harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni o'qiy oladi; so'zda nechta tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishini bir unli tovush bo'g'in hosil qilishini, ya'ni o-na, u-ka, a-ka kabi bo'g'inga bo'la oladi, harflar birikmalari ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inga bo'la oladi, x va h tovushli so'zlarni to'g'ri yoza oladi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, mash'al, ma'qul, ta'lim, Jur'-at, ta'-zim kabi tutuq belgili so'zlarni bo'g'inga bo'lib yoza oladi, lug'at, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasmlari diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida ko'chira oladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili o'qitishning asosiy maqsadi turli vaziyatlarda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, og'zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo'lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish ekanligi ko'p bora ta'kidlanadi.

Demak, ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me'yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish; tilning keng imkoniyatlaridan unumli foyda-langan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili ta'limining mazmuni o'zgarmoqda. Biz yillar davomida ona tili ta'limi orqali o'quvchilarga grammatik qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o'rgatib keldik. Endilikda grammatika bilan bir qatorda o'quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ko'proq e'tibor berishimiz lozim. Bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) ni har bir darsda amaliy qo'llash va o'quvchida bunga nisbatan ko'nikma shakllantirish darkor. Ana shu fikrlarning isboti sifatida umumta'lim muassasalarining 2-3-sinflari uchun 2022-yilda nashrdan chiqqan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligini keltirish mumkin. Avvalo, mazkur darsliklar hozirgi zamon bola psixologiyasiga mos ravishda tuzilgan: mashqlardan qonuniyat yaratilishiga e'tibor qaratilgan. O'quvchi matn bilan tanishgach, o'z fikr-mulohazalari asosida xulosaga olib kelingan va nazariy matn berilgan. Mavzularni kundalik hayotga yaqinlashtirish barobarida muomala madaniyati, odob-axloq me'yorlari, milliy qadriyatlarni ulug'lovchi o'zbekona dunyoqarash bilan uyg'un matnlar berilgan. Masalan, 2-sinf darsligidagi "Oshxonamiz ramzi" audiomatni (6-bet). Ushbu audiomatndan so'ng o'quvchilarning fikrlashga, o'ylashga undovchi topshiriq berilgan.

Bu orqali o'quvchi eshitgan ma'lumotidan xulosani o'zi chiqaradi.

"Chumolining jasorati" (3-mashq), Bu mashq orqali o'quvchilarning o'qib tushunish malakalari rivojlantiriladi. Bunda ular bir vaqtning o'zida ham maqollarning mazmuni haqida, ham ulardan qaysi biri hikoya g'oyasiga mosligi haqida fikr yuritadilar.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslari jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda, o'quvchilarning nutqini ostirish maqsadga muvofiqdir. O'qish fanidan qiziqarli savol-topshiriqlar tuzish va o'tiladigan mavzular bo'yicha mustahkamlashdan iborat. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularning fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini

rivojlantirish kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishgan iborat .¹

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning har xil usullari va shakllarini topish va uni tadbiq etish ilimiy tadqiqotning ko'zlangan asosiy maqsadidir.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'qituvchilar darsda ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta'lim muassasasida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli o'quv-metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning katta zahirasi mavjud. Sifatli ta'limiy faoliyatni multimedia materiallari orqali tashkil etish an'anaviy uslublarga nisbatan afzalligini o'qituvchilar anglab yetdi.

Boshlang'ich sinflarda ona Vatanga muhabbat va sadoqat, ona tilini o'qitishda tilga hurmat, shu bilan birga o'zbek tilining qanchalik boy til ekanligini anglash, o'qish va orfografik til me'yorlariga amal qilishni dars jarayonida tadbiq etish lozim. Ona tili va O'qish fanlarining qiziqarli o'tishi, interaktiv metodlarning dars jarayonida foydalanishda kompetensiyaviy yondashish lozim.

Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetensiyalarning o'ziga xos o'rni muhim sanaladi. Mavzuga doir mashqlar topshirig'ini mustaqil bajarish, mashq tarkibida gaplardan va matnlar mazmunidan to'g'ri xulosa chiqarish, tinglab tushunish orqali matndan anglashiladigan asl g'oya mazmunini qayta hikoya qilish va adabiy til me'yorlariga asoslanib so'zlab berish hamda yozish, o'z nutqini og'zaki va yozma shaklda erkin ifodalashi zaruriydir. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹, deb e'tirof qilinishi ona tili o'qitish metodikasi oldiga ta'lim jarayonining sub'ektlarini jahon yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, turli informatsiyalarni tinglab tushunadigan, ma'lum fikrini ma'noli ifodalab, aniq, sarmazmun so'zlab yetkazadigan va diqqat bilan o'qish qobiliyatlariga ega bo'lgan hamda yozish jarayonida orfografik qoidalarga amal qiladigan, turli ma'lumot va axborotlarni o'qib kerakli xulosani chiqaradigan, o'z pozitsiyasiga ega bo'lgan kuchli raqobatbardosh bilim egalari qilib tarbiyalashdek dolzarb va muhim vazifani qo'yadi.

Shuningdek, B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasida: "Ona tili mashg'ulotlari nutq san'atini egallash va undan samarali foydalanish bilim, ko'nikma va malakalarni

¹ Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O'qituvchi, 1995. 78-bet

tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat shakllanadi. Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishidan kimga?, nimaga?, qachon?, qaerda?, qanday? so‘zlashgacha bo‘lgan muomala-muloqot sirlarini o‘rgatadi; sharqona odob-andisha, go‘zal qiroat san’ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi”², - deyiladi. Shunisi ayonki, ona tili darslarida eng asosiy vazifa – bu o‘quvchilarning nutq madaniyatini, nutqiy ko‘nikmalarini, mustaqil, ijodiy, mantiqiy fikrlashini o‘stirish va turli nutqiy vaziyatlarlarda purma‘no, o‘rinli so‘zlar ishlatib kommunikatsiyadagi ishtirok etishini rivojlantirishdir.

Professor Sh.Yusupovning ta’kidlashicha, ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish bo‘yicha “Sharhlash usuli”ni qo‘llashdan turli maqsadlar ko‘zlanishi nazarda tutiladi. ”1.Sharhlash ona tili bo‘yicha o‘tilgan nazariy ma’lumotlarni idrok qilishga yordam beradi. 2.Sharhlash nazariy ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llashni bildiradi. 3.Og‘zaki nutqni o‘stirishga yordam beradi. 4.Orfoepik va orfografik normalar munosabatlarini muvofiqlashtiradi. 5.Butun dars jarayonida o‘quvchilarda nazariy ma’lumotlar ta’kidlanadi”. Metodist olim to‘g‘ri qayd etganidek, ona tili darslarida o‘quvchilar nazariy ma’lumotlarni sharhlashi natijasida to‘g‘ri so‘zlash, nutq texnikasiga muvofiq talaffuz qilish va adabiy til me‘yorlariga amal qilib to‘g‘ri yozishdagi ko‘nikma va malakalari, dars davomida o‘rgangan bilimlarining amaliyotga tatbiq etish darajasi sinovdan o‘tadi.

G‘.Hamrayevning “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida fonetika doir o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida ”Agar darsni tashkil etish, xususan, ona tili darslarida fonetika, orfoepiya, orfografiya mavzularini o‘qitish o‘qituvchining ixtiyoriga to‘liq topshirib qo‘yilsa, o‘quvchilarning adabiy talaffuz hamda imloga oid ko‘nikmasi bir xil bo‘lmasligi muqarrar. Talaffuz va imlo qoidalari esa bir xillikni taqozo etadi. Shu ma’noda o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni avtomatlashtirish masalasi juda dolzarb bo‘lib qoladi”⁴ deyiladi. Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish asosan ona tili o‘qituvchisining darsni yuqori saviyada tashkil etishi bilan bog‘liq. Nutqiy kompetensiyalar: tinglab tushunish, eshitish, o‘qish, , yozish deyarli har bir ona tili darsida rivojlantirilib boriladi. Ona tili o‘qitishda o‘qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri, o‘quvchilardagi hosil bo‘lgan nutqiy ko‘nikmalarlarning rivojlanish ko‘rsatkichini nazorat qilish va shu bilan bir qatorda o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarning o‘sish darajalarining “oqsayotganini” aniqlash, interaktivmetodlardan foydalanish va bu borada ularning yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklari ustida muntazam ishlab bu kemtik o‘rinlarni o‘z vaqtida tuzatishdir. O‘quvchilarga so‘zlarning imlosi bo‘yicha imlo lug‘at bilan ishlashni, ko‘chirib yozish mashqlarini bajarishda o‘rganib, eslab qolishni uqtirish, so‘zlarning ma’noviy strukturasida izohli lug‘atlar bilan ishlash, omonim va

sinonim lugʻatlar bilan ishlashni oʻrgatishdir. Buning uchun u darsning yakunlovchi qismida vaqt ajratsa, oʻqish va yozish mashqlariga alohida urgʻu bersa, nutqiy kompetensiyalar takomillashadi. Albatta, bu jarayon oʻqituvchidan birgina darslik bilan chegaralanib qolmasdan izlanishni, qoʻshimcha ilmiy adabiyotlar ishlashni, zamonaviy va ilgʻor metodlardan foydalanishni talab qiladi. M.Mahmudovning fikricha, “yoshlarning fikrlashi, tafakkurini oʻstirish, xotirasi va qobiliyatlarini taraqqiy ettirish” oʻqitishning jamiyat rivojidagi bajarilishi lozim boʻlgan muhim vazifalardan biri sanalishi eʼtirof etiladi⁵. Yoshlarning keng doirada fikrlashini, tafakkurini oʻstirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish ayniqsa jamiyatda tub burilishlar, oʻzgarishlar hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda oʻqituvchining darsga jiddiy yondashishi zarur ekanligi Sh.Sariyevning tadqiqot ishida yoritilgan. “Oʻqituvchining oʻqish namunasiga koʻra oʻquvchilar toʻgʻri, ifodali oʻqishni oʻrganadi.Darsda matnni oʻqib berish uchun oʻqituvchi puxta tayyorgarlik koʻrishi, mazmunni chuqurroq anglashga intilishi, matnning ayrim oʻrinlari qanday oʻqilishi lozimligini belgilab olishi lozim. Oʻqituvchi ayrim tovush, boʻgʻin, soʻzlarni qanday oʻqish kerakligini izohlagach, oʻquvchilar matnni navbat bilan oʻqishadi. Oʻqituvchi ularni kuzatib, toʻgʻrilab boradi”⁶. Oʻqituvchi soʻzni risoladagidek oʻqishni, soʻzlarni oʻqish vaqtida intonatsiya va urgʻuga eʼtibor berishni, jumalarning tarkibidagi leksik birliklar tiniq, ravon talaffuz qilishni oʻrgatsa, oʻquvchilarning oʻqish texnikasini egallash faoliyati aktiv holatga oʻzgaradi.2Oʻqish texnikasini egallashda takror oʻqish samara beruvchi nutqiy faoliyatdir. Bir marta oʻqilgan matn oʻquvchida yetarlicha tushuncha va bilim hosil qilmasligi mumkin. Oʻqish faoliyatining qiziqarli tashkil qilinishi ularning chuqur bilim egallashga yoʻnaltiradi.Muntazam kitob oʻqish, ilmiy, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish muayyan motivlarni oʻzida tarkib toptiradi.

– Binobarin, oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi omillarni keltirish mumkin: oʻquv dasturida berilgan mavzular boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalarni hosil qilish;

– oʻquvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish;

– mashq va topshiriqlarni bajartirish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlashva nutqini oʻstirish;

– ona tili darsligida berilgan matn va lugʻat ustida ishlashni muntazam olib borish;

2 Gʻulomov A, Qodirov M,Ernazarova M va boshq. Ona tili oʻqitish metodikasi.- T.:”Fan vatexnologiya”,2012

- ona tili mashgʻulotlarida ilgʻor texnologiyalar va zamonaviy metodlar asosida bogʻlanishli matn tuzish va yozish malakalariga eʼtibor qaratish;
- ilmiy qarashlarga va badiiy ifodalarni izohlab, ularga subyektiv munosabat bildirish va mantiqiy fikrlash koʻnikmasini rivojlantirish.

Demak, ona tili darslarida oʻquvchilarning nutq madaniyatini va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga har bir dars davomida eʼtibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

II. AMALIY MASHGʻULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Grammatik (fonetik, leksik, morfologik...) kompetensiyalarni zamonaviy texnologiya asosida shakllantirish

Reja:

1. Fanga qoʻyilgan zamonaviy talablar
2. Interfaol metodlar
3. Grammatik (fonetik, leksik, morfologik...) kompetensiyalarni zamonaviy texnologiya asosida shakllantirish usullari

Hozirgi vaqtda taʼlim jarayonida oʻqitishning zamonaviy metodlari keng qoʻllanilmoqda. Oʻqitishning zamonaviy metodlarini qoʻllash oʻqitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Taʼlim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

AQSH da “Pedagogik texnologiya” nomli jurnal 1961 yildan, Buyuk Britaniyada “Pedagogik texnologiya taʼlim jarayoni sifatida” nomi bilan 1964 yildan, Yaponiyada “Pedagogik texnologiya” jurnali 1965 yildan, Italiyada 1971 yildan chiqa boshladi. YuNESKO tomonidan “Pedagogik texnologiya” nomli 93 byulletenlar taʼlim boʻyicha xalqaro byuro tomonidan chiqarib turiladi. “Texnologiya” soʻzi grekcha techne – mahorat va logos – taʼlimot soʻzlaridan kelib chiqadi. Shunga koʻra, atamani soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, pedagogik mahorat haqidagi taʼlimot deyish mumkin. Istalgan pedagogik texnologiya aniq ilmiy kontsepsiyaga tayanishi, bir butun va samarali boʻlishi, boshqa taʼlim muassasalarida qoʻllanilganda shunday natijani berishi kerak. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi

1. Konsepsiyasi (falsafiy, psixologik, didaktik, sotsialpedagogik asoslari).

2. Ta'lim maqsadi, ta'lim natijalarini rejalashtirish.
3. Ta'lim mazmuni.
4. O'quvchining istalgan vaqtdagi holatini tashxis qilish vositasi.
5. Mavjud sharoitlar uchun optimal modellarni tanlash mezon.
6. O'qitish modellari majmuasi(o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining shakli va usullari). Pedagogik texnologiyalar klassifikatsiyasi Pedagogik texnologiyalarni turli alomatlariga ko'ra sinflarga ajratiladi.

1. Qo'llanilish darajasiga ko'ra:

- (umumpedagogik;
- (xususiy o'quv predmetlari;
- (lokal yoki xususiy metodikaga doir.

2. O'zlashtirish kontsepsiyasiga ko'ra:

- (assotsiativ-reflektorli;
- (rivojlantiruvchi;
- (interiorizatorli;
- (bixevioristik;
- (geshtalt texnologiya;
- (suggestiv;
- (neyrolingvistik.

3. Tashkiliy shakliga ko'ra:

- (sinf-dars yoki alternativ;
- (akademik yoki klublar shaklida;
- (individual yoki guruhlarda;
- (jamoa holda o'qitish shakllari;
- (tabaqalab o'qitish.

4. Bolaga yondashuviga ko'ra:

- (avtoritar;
- (shaxsga yo'naltirilgan;
- (hamkorlik texnologiyasi va h.k..

5. Ustuvor metodikasiga ko'ra:

- (reproduktiv;
- (ko'rgazmali – tushuntirish;
- (dasturlangan o'qitish;
- (dialogik ;
- (rivojlantiruvchi ta'lim;
- (o'yin;
- (muammoli-izlanuvchan;
- (o'z-o'zini rivojlantiruvchi ta'lim;
- (ijodiy;

(axborot kommunikatsion (kompyuter).

6. Ta'lim oluvchilar kategoriyasiga ko'ra:

(ommaviy texnologiya;

(to'ldiruvchi texnologiya;

(tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlash texnologiyasi;

(iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash texnologiyasi va h.k.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. SWOT tahlili izohi.

“Xulosalash” (Rezyume, Ver) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli haraktridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot

beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda shaxsning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan mahruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Namuna:

Fanga qo'yilgan zamonaviy talablar					
Fanga talabalarning munosabati		Fanga kirayotgan pedagog bilan talabalar munosabat		Fandan pedagog axborot texnologiya vositalar bilan ishlashi	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi. “Keys-stadi” - inglizcha so'z bo'lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot tahmini bilan tanishtirish	-yakka tartibdagi audio-vizual ish; -keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); -axborotni umumlashtirish; -axborot tahlili; -muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ini belgilash	-individual va guruhda ishlash; -muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; -asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	-individual va guruhda ishlash; -muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; -har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; -muqobil yechimlarni tanlash

4-bosqich: Keys, yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	-yakka va guruhda ishlash; -muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; -ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; -yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish
--	--

Keys. Mashg'ulot jarayonida siz o'tayotgan mavzuni juda yaxshi biladigan talaba yoki talaba bor, shu sabab, u mashg'ulot davomida Sizga va ta'lim jarayoniga xalaqit bera boshladi: savollari, fikrlarga qo'shilishi bilan barchani diqqatini bo'lib chalg'ita boshladi

“FSMU” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi; har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi: ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi. FSMU tahlili qatnashchilarda nazariy va amaliy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi. Namuna. Fikr: “Pedagogik pedagogika” Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assisment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tahlil oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali tahlil oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi: “Assesment”lardan mahruza mashg'ulotlarida talaba yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, pedagogning ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi: ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi; talabalarga mavzuga yoki

bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda); talabalar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar; belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi; har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Pedagog	Pedagog-tarbiyachi. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi shaxs. Ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganuvchi va bu jarayonni boshqarish muammolari bilan shug'ullanuvchi shaxs.	
Jamoa	Yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi.	
Tarbiya	Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.	
Shaxs	Psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.	
Insonparvarlik	Insonning qadri, erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to'g'risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha.	
Pedagogik texnika	O'qitish, ta'sir ko'rsatish, ta'lim-tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyg'ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalaydi.	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: talabalarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan

topshiriq, yahni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi "yakka baho" kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2.Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh ahzolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga tahsir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini "guruh bahosi" bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3.Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va shaxslardan bu javoblarni "to'g'ri javob" bo'limiga yozish so'raladi.


4."To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlardan "yakka baho" bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa "0", mos kelsa "1" ball qo'yish so'raladi. Shundan so'ng "yakka xato" bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5.Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va "guruh bahosi" o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6.Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7.Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Quyida "Bahs-munozara" metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



"Bahs-munozara" metodining tuzilmasi

"Bahs-munozara" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta'lim oluvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.


“Muammoli vaziyat” metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning echimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va echimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

2. Ta’lim beruvchi mavzu bo’yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlar ajratadi.

5. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o’rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so’ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to’g’risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so’ng bir xil fikrlar jamlanadi.

7. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo’llarini ishlab chiqadilar.

8. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo’yicha taqdimot qiladilar va o’z variantlarini taklif etadilar.

9. Barcha taqdimotdan so’ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo’llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo’yilgan muammo ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi

kerak.

2-mavzu. Kognitolingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetensiyani shakllantiruvchi usullar

Reja:

1. Kommunikativ savodxonlik tushunchasi
2. Kommunikativ savodxonlik darajasini rivojlantirish yo’l va usullari
3. Kognitolingvistik kompetensiyani shakllantiruvchi usullar.
4. Sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantiruvchi usullar.
5. Pragmatik kompetensiyani shakllantiruvchi usullar.

Lingvistik kompetentsiya -til sathlari (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va tilning ifoda vositalarini (o’qish texnikasi, o’zgalar fikrini va matn mazmunini anglash, fikrni yozma shaklda bayon etish) egallashni nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetentsiya – so’zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda vositalarini tanlash imkonini yaratadi.

Pragmatik kompetentsiya – kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo’lganda takroran so’rash, uzr so’rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, egallangan bilimlarning amaliy imkoniyatlaridan o’rinli foydalana olish qobiliyatini nazarda tutadi.

O’quvchining mustaqil fikrlashi, o’zgalar fikrini anglashi, nutq va muloqot madaniyati rivojlanishi uchun ona tili ta’limi standart talablariga javob berishi, ona tilini kommunikativ va lingvistik kompetensiyasi bo’yicha yetarli darajada egallashlari ko’zda tutiladi. Shu maqsadda ushbu o’quv fanining asosiy mazmunida quyidagi talablar ko’zda tutiladi:

1. Ona tilidan muloqot malakasini egallash (kommunikativ kompetentsiya).
2. Til materiallari va vositalarini nutqda qo’llay bilish uchun yetarli bilimlarni o’zlashtirish (grammatik kompetentsiya). Ushbu mazmun asosan kommunikativ

kompetentsiyani egallash orqali ona tilini o'rgatishning umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadini ko'zda tutadi.

1. Kommunikativ kompetentsiya Ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy uch turi: o'qish, gapirish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan bilim va ko'nikmalar mehyorini belgilab beradi. Bunda o'quvchining notanish matnni ifodali o'qiy olishi, o'zgarlar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish darajasi, fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olishi, tilning ifoda vositalaridan o'rinli va unumli foydalana bilishi, imloviy savodxonligi kabi kompetentsiyalarni egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

2. Grammatik kompetentsiya Standartda nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til material, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko'nikma va malakalar belgilanadi. Bunda o'rganilayotgan o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo'yicha nutqning og'zaki va yozma shakllaridan keng va to'g'ri foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berish, o'zbek tilida to'g'ri talaffuz, imlo va punktuatsiyaning asosiy qoidalarini o'zlashtirish, muayyan bir xabarni yoki ma'lumotni turli shakllarda bera olish, kundalik hayot uchun zarur bo'lgan ish qog'ozlarni yuritish, badiiy, ilmiy, siyosiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazasini shaxsiy munosabatini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi. Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetentsiyalarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetentsiyalar ham shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar talimida(9+3) o'qitiladigan umuta'lim fanlari mazmunining izchilligini tahminlash maqsadida tayanch kompetentsiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetentsiyalar belgilandi. Pedagogik texnologiyalar haqida umumiy ma'lumotlar Pedagogik texnologiya deyilganda, qisqacha quyidagini tushunish mumkin: rejalashtirilgan ta'lim natijalariga, o'quvchilar tomonidan eng samarali ravishda erishishlariga kafolat beradigan pedagogik jarayonni loyihalashtiradigan pedagogika fani yo'nalishi. "Pedagogik texnologiya" (education technology) atamasi o'tgan asrning 60-yillarida pedagogik nashriyotlarda paydo bo'lgan.

O'quvchilarda tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish uchun ta'lim texnologiyalarini tanlashda o'quv fani o'qituvchisi taqvim-mavzu rejada mazkur sinf uchun belgilangan tayanch kompetentsiyalarni belgilab oladi. Shundan so'ng, o'rganilishi zarur bo'lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetentsiyalarni hisobga olgan holda darsni o'tish metodi, usuli tanlanadi.

Ona tili o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv yoshlarni til haqidagi bilimlar bilan birgalikda, muammoli vaziyatlarda bu bilimlardan o'rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun ham ona tili o'qituvchisining bosh vazifasi faqat bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash emas, balki bu bilimlarga ega bo'lish bilan birga ulardan muammoli vaziyatlarda o'rinli foydalanish malaka va ko'nikmasiga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Bugungi globallashuv jarayoni dunyo miqyosida tilshunoslikning ham, til ta'limining ham zimmasiga yangidan-yangi vazifalarni yukladi. Hozirgi kunda tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish fanning ham, ta'limning ham asosiy muammosiga aylanib qoldi. Ona tili ta'limida o'quvchilarning muayyan nutqiy vaziyat, sharoit va madaniy muhitda tildan oqilona, samarali foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish masalasi asosiy o'ringa chiqarildi. Ta'lim oluvchilarning ona tilidan amalda foydalanish ko'nikmasini shakllantirishda quyidagi beshta kompetensiyani rivojlantirish orqali erishish mumkin. Bular: lingvistik kreativlik kompetensiyasi, lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya.

Yuqorida keltirilgan kompetensiyalarning har biri ona tili ta'limida muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsiolingvistik kompetensiya aynan bugungi kunda yosh avlodning muloqot madaniyatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Sotsiolingvistika terminiga akademik A.Hojiev quyidagicha ta'rif beradi: "Sotsiolingvistika – tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashash va ijtimoiy taraqqiyot sharoitlarini o'rganuvchi sohasi. Sotsiologiya va lingvistikaning sintezidan iborat bo'lgan bu soha til bilan ijtimoiy hayot faktlari aloqasi hisoblanadi, til siyosati yuritishning vazifa shakllari, keng xalq ommasi nutq madaniyatini ko'tarish kabi muammolar bilan shug'ullanadi."

Shundan kelib chiqib, sotsiolingvistik kompetensiya – o'quvchining jamiyat tarixiy taraqqiyotidagi o'zgarishlarning tilda aks etishini, sotsial omillarning tilga ta'sirini, tinglovchining yoshi, jinsi, madaniyat darajasini e'tiborga olgan holda muloqot qilishiga doir bilim, ko'nikma va malakalaridir. Sotsiolingvistik kompetensiya orqali o'quvchilarda muloqot madaniyati shakllanadi hamda suhbatdoshining sotsial rollariga muvofiq so'zlarni tanlay olish ko'nikmalari shakllanadi.

Masalan, 1) kommunikantlar yosh jihatdan teng va bir jins vakili bo'lsalar, ular nutqida samimiylik, tenghuquqlilik ottenkasi o'z ifodasini topadi. Misol uchun:

- Salti endi gap ochdi:

- Erta saharlab chopganim bekorga emas.
- Men ham sezganman... Yuragim bir qur seskanib ham oldi.
- Nimaga o'rtoqjon?
- O'zingiz bilgan sovchilar balosi-da... Qish ichi keti uzilmadi. (Cho'lpon)

2) Kommunikantlar ikki xil jins vakillari bo'lsalar. Ayniqsa, ayollar notanish erkaklar bilan muloqot jarayonida xushmuomala bo'lishga, odob saqlashga, suhbatdoshiga nisbatan hurmat ko'rsatishga harakat qiladilar.

3) Sotsial mavqei nuqtai nazaridan:

-Ertadan boshlab yurtga o'ttuz ikki tangadan soliq sochasiz.

... Azizbekning bu zolimona buyrug'iga qarshi qattiq so'zlar aytishka o'ylasa ham achchig'ini qanday kishiga aytilishini o'ylab o'zini yig'di.

- Taqsir, siz yig' der ekansiz, ertaga emas, bu kundanoq yig'a boshlayman. Yurt qani bermasin-chi! Faqat menga sizning buyrug'ingiz kifoyadir. (A.Qodiriy)

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida aynan nutqning antropotsentrik tadqiq qilish kuchaymoqda. Bu esa o'z navbatida til ta'limida ham qator o'zgarishlarni olib kelishi tabiiy. Aynan sotsiolingvistika ana shu yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Sotsiolingvistika nutqni jamiyat bilan, jamiyatda mavjud turli tabaqalar bilan bog'liq jihatlarini tadqiq qiladi. Til ta'limidagi sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish orqali o'quvchining jamiyatda tildan foydalanish ko'nikmasi shakllanadi.

5-sinf 1-chorak 1-dars "Til – ijtimoiy hodisa" mavzusiga oid 2-topshirig'ini bajarish jarayonida o'quvchining sotsiolingvistik kompetensiyasini quyidagicha shakllantirish mumkin. Ushbu mavzuga doir quyidagi "Tillarning barchasi insonlar o'rtasidagi aloqa-aralashuvni ta'minlash vazifasini bajaradi. Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'zbek tilining ijtimoiy vazifalari yanada kengaydi"....mazmundagi matn berilgan. Matn mazmunidan kelib chiqib o'qituvchi darsda hamkorlikda ishlash texnologiyasining kichik guruhlarda ishlash usuli asosida o'quvchilar diqqatiga "Nima uchun Rossiyada yoki Amerikada o'zbek tilida gaplashishmaydi?, "Nega rus, ingliz, nemis tillarini maxsus o'rganamiz? "Til-ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunasiz? kabi savollarni havola etishi mumkin. O'quvchilar matn mazmunidan kelib chiqib savollarga og'zaki yoki yozma javob beradilar. Ushbu savollarga kichik guruhlarining javobi eshitiladi.

Shuning uchun yuqoridagi darsning (5-sinf 1- chorak 1- dars) 1 -mashqda "Quyidagi so'zlarning o'zbek tilida paydo bo'lish sabablarini aniqlang" talabi qo'yilgan. Ya'ni berilgan so'zlar: kollej, litsey, tadbirkor, fermer, tuman, viloyat, kompetensiya kabi so'zlarni har bir o'quvchi til lug'atida yangi paydo bo'layotgan so'zlarni yangi paydo bo'lgan so'zlar hamda izohli lug'atlar asosida sharhlashga harakat qiladilar.

Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, ta'lim mazmuni samaradorligini oshirish, dars jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadida Yevropaning rivojlangan mamlakatlari va mamlakatimizda ona tili bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish tajribasiga asoslangan holda, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standartlarining loyihasi

ishlab chiqildi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsiy imkoniyatlariga mos lashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etishdir. Shundan kelib chiqib, bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda ona tili o'qitishda quyidagilarning inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir:

1. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim usulini o'qituvchilar orasida ommalashtirish eng muhim vazifalarimizdan biri sanalishi lozim. O'qituvchilarimiz zamonaviy kompyuter o'quv dasturlarini, interaktiv faoliyat usullaridan amaliy foydalanishni o'rganib olmas ekanlar, ta'lim natijalarida katta samaradorlikka erisha olmaydilar.

2. Yangi avlod darsliklari va yangi ta'lim usuli bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish uchun o'quvchilar qo'shimcha axborot manbalari bilan ta'minlangan bo'lishlari shart. Hozircha bu manbalar darslikning o'zi, o'quvchining xotirasidagi, kundalik turmush, internet, boshqa o'quv fanlaridan, atrofdagilardan so'rab-surishtirib olinadigan ma'lumotlardan iborat. O'qituvchilar ona tili boyliklarini o'quvchilarga yetkaza oladigan qomusiy ma'lumotnoma, turli xildagi (izohli, uyadosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, shakldosh so'zlar) lug'atlar, elektron darslik, audio-vizual vositalar (har bir mavzu yuzasidan sinflar kesimida taqdimot, multimedia, videorolik) bilan ta'minlangan bo'lishlari shart.

3. Darsliklar, elektron o'quv adabiyotlarida berilgan matnlar, testlar, mustaqil ish uchun topshiriqlar, didaktik materiallarni ham ijodiy lashtirish, ham zamon talablariga javob beradigan tarzda takomillashtirish ustida o'ylashi va izlanishi lozim. Buning uchun darsliklarimizda o'z aksini topgan sharqona testlar, topqirlar bellashuvi, quvnoqlar va zukkolar musobaqasi, mantiqiy mashqlar uchun zarur bo'lgan savol va topshiriqlar miqdorini oshirish maqsadga muvofiqdir.

4. Ona tili o'qitishda o'quv materiallari muayyan izchillikda maqsadli yo'naltirilishi, mavzuiy – muammoli tizimda, ya'ni ma'lum bir mavzu doirasida tilimizning barcha imkoniyatlaridan, ifoda va tasviriy vositalaridan bir yo'la, o'zaro bog'lanishda o'rganishga o'tish, chunonchi, fonetika, leksikografiya, sintaksis bo'limlarini o'rganishda matn yaratishning bosqichli tizimi, mustaqil, ijodiy fikrlash mashqlaridan foydalanish zamon talabidir.

5. Bolaga muloqot qilish, nutqni rivojlantirish, tilning barcha imkoniyatlarini o'rganish va rivojlantirishi uchun jismoniy, ijtimoiy, psixologik imkoniyatlarni yaratish lozim. Shaxs kamoloti to'laqonli – ong va tuyg'u, ruh va tan birligi tarzida shakllantirishga asoslanish kerak.

6. Lingvistik kompetensiyani - til sathlari (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va tilning ifoda vositalarini (o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash, fikrni yozma shaklda bayon yetish) egallash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan lug'atlar, mashq-topshiriqlar, matn, she'r, topishmoqlar miqdorini ko'paytirish va darsliklarda aks ettirish maqsadga muvofiq.

7. Yangi avlod darsliklarida sotsiolingvistik kompetensiyani - so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan

kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda vositalarini tanlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, pragmatik kompetensiyani – kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, egallangan bilimlarning amaliy imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan turli tipdagi dialoglar, hayot bilan bog'liq voqealarni aks ettiruvchi matnlar o'z aksini topmog'i lozim.

Pragmatik kompetensiya – o'quvchining nutq sharoiti, nutq vaziyatida, nutq uslublari (so'zlashuv, ilmiy, badiiy, publitsistik) dan oqilona, samarali foydalana olish malakasiga ega bo'lishini bildiradi. Nutqiy faoliyatda nutq uslublari, nutq maqsadi, uning turlari (oshkora yoki yashirin), shakllari (xabar, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da berish, salomlashish, so'rashish, xayrlashuv, uzr, tabrik, shikoyat kabilar), nutq strategiyasi, taktikasi kabilar bevosita real nutqiy vaziyat bilan bog'liq ravishda reallashadi. Ona tilining pragmatik ta'limida til bo'yicha bilimlar o'quvchi kundalik hayotida duch keladigan aniq hayotiy vaziyatlar bilan bevosita bog'langan holda beriladi. Sodda qilib aytganda, o'quvchi ona tilining qudratli imkoniyatidan aniq nutqiy vaziyatlarda, nutq uslublari oqilona, samarali foydalana olish malakasiga ega bo'lishiga erishish pragmatik ta'limning negizini tashkil etadi. O'quvchilarning nutqiy vaziyatni to'g'ri, xolis baholay olishga doir tayyorgarlik darajasi (bilim, ko'nikma, malakalari majmui) hisoblanadi.

Har bir kishi muayyan muloqot vaziyatida o'z maqsadiga muvofiq ravishda ko'plab variantdosh til hodisalaridan ayni shu vaziyat uchun mosini tanlab qo'llash malakasiga ma'lum darajada ega.

Darsliklarda amaliy mashq va topshiriqlar berilgan. Masalan, 5-sinf 3 - chorak 146-dars "Tutuq belgisining ishlatilishi" mavzusiga doir 435-mashq shartida juft holda berilgan ,ya'ni san'at-sanat, she'r-she'r, sur'at-surat, sa'va-sava, qal'a-qala, ta'na-tana kabi so'zlarning ma'nosini izohlash, farqini tushuntirish va ular ishtirokida gaplar tuzish topshirig'i bajarilishi bilan o'quvchida pragmatik kompetensiya shakllanadi. O'quvchi quyidagicha gap tuzishi mumkin. Namuna: Zahiriddin Muhammad Bobur taxallusi sher ma'nosini ifodalaydi.

Shuningdek nutqda "Bu yoqqa kel!", "Bir kelgin!", "Bir kelib ket!", "Kelasanmi!", "Kelaqol!", "Keling-da!", "Hoy, bu yerga!", "Ey, bu yoqqa!", "Menga qara(ng)!", "Bir daqika!" "Mumkinmi?" "Falonchi (jon/xon/aka/opa)!" kabi yuzlab ifodalar, xar xil imo-ishoralar bor. Lekin ular qanday nutqiy vaziyatda, kimga nisbatan ishlatilishi, qanday samara berishi jihatidan keskin farqlanadi.

Ona tili ta'limida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish o'quvchida nutq vaziyatini to'g'ri baholashni, unga mos so'zlash shaxsiy sifatlarini qaror toptirishni ko'zda tutadi.

O'zga millatlarning madaniy boyliklarini asrab avaylash va yoshlarni ham shu yo'ltimoiy hayot rivojlanish tendensiyalarining asosiy tamoyillardan biri – bu tobora kengayib borayotgan madaniyatlararo munosabatlar jarayonidir. Muayyan bir jamiyat tarkibidagi etnomadaniy jamoalarning o'xshash tomonlari va farqlarining psixologik jihatidan zamonning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ko'pgina olimlarning fikricha, globalizatsiya natijasida o'z davlatchiligiga ega bo'lmagan elatlar madaniy o'ziga xosligini yo'qotishi mumkin.

Ma'lumki bunday elatlarning soni 1200 dan ziyodni tashkil etadi. Ko'p millatli mamlakatlar jumlasiga kiruvchi O'zbekiston Respublikasida sinda tarbiyalash asosiy vazifamizdir. O'zga madaniyatlar bilan munosabatlarda insoniylikning barcha namunalarini namoyon qilish madaniyatlararo kompetentlik deb ataladi. Madaniyatlararo kompetentlik – muloqotning samarali shaklini ifodalash bilan bir qatorda chuqur bilimlilik, savodxonlikni anglatadi.

O'quvchilarda madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirish nafaqat mamlakat ichkarisida barqarorlikni ta'minlab turish uchun, balki talabalarimizni jahon arenasida o'zlarini munosib tutishlari, zukkolik va insoniylik xususiyatlarini ko'rsatishlari uchun zarur.

“Etnik qiziqishlar, his-tuyg'ular, didlar, ehtiyojlar madaniyatlararo munosabatlarda e'tiborga olinishi va yoshlarga bu masalada estetik tarbiya berilishi lozim”. Har bir madaniyat, millat tarkibiga yangi zamonaviy o'zga tilli madaniyatning kirib kelishi shaxs qadriyatlar orientatsiyasini, ijtimoiy ahamiyatli artefaktlar – ta'lim, kasb, til, kommunikatsiya, norma va qadriyatlarga munosabatini o'zgarishini tahmin qiladi. Shuningdek, tobora kengayib borayotgan madaniy va professional aloqalar jamiyatning chet tillarida erkin gapira oladigan, munosabatlarda erkin, psixologik bardoshli, kompetent mutaxassisga ehtiyojini faollashtiradi. Ushbu hislatlar zohirligi esa, professional tayyorgarlikning zaruriy elementi bo'libgina qolmay, balki shaxsiy individual rivojlanishning tarkibiy va mantiqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Milliy madaniyatlar taraqqiyoti bevosita butun mamlakat madaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Har bir etnos o'zining etnik xususiyatlarini saqlash orqali butun sayyora taraqqiyotiga bog'liq bo'lgan jahon madaniyatini anglamasdan, uning yutuqlarini qabul qilmasdan, unga ergashmasdan taraqqiy topmaydi. Aksincha, o'zining tor milliy qobig'ida qolib ketaveradi.

Madaniyatlararo kompetentlik – bu boshqa madaniyat vakillari bilan muvaffaqiyatli muloqot tizimini ta'minlaydigan malakalar, qurilmalar, hulq-atvor modellari orqali shakllanuvchi boshqa madaniyat haqidagi tasavvurlarning, bilimlarning yig'indisidir. U o'zida o'zga madaniyat vakillari bilan o'zaro munosabatlarda kompetentlik xususiyatini namoyon qiladi. Madaniyatlararo kompetentlik – yuqori bilimlilik, shaxslararo munosabatlarda ziyraklik, mamlakat ichkarisida va tashqarisida sodir bo'layotgan yangiliklardan xabardorlik, munosabatlarda noziklik, muloqotdagi hamkorining madaniyati, tili, an'alarini, tarixini bilish va hurmat qilishni bildiradi hamda ijtimoiy munosabatlarning barcha jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy psixologiyada u muloqotning ijtimoiy-perseptiv, kommunikativ va interaktiv aspektlarida shakllanadi. Madaniyatlararo kompetentlikning perseptiv, kommunikativ va interaktiv shakllari mavju. Bu uchta komponent o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, birining rivojlanishi ikkinchi va uchinchisining d rivojini taqozo etadi.

Ijtimoiy-perseptiv kompetentlik rakursida dastavval kognitiv atributiv jarayonlarga – streotiplashuv va ijtimoiy kazual atributsiyalarga e'tiborni qaratmoq lozim. Ushbu aspektni o'rganish davomida, madaniyatlararo kompetentlik dasturi tadbiq etilib, qurilmalar shakllanishiga jiddiy yondashiladi. Mazkur metodlarni ishlab chiqishda ustanovkalarga ta'sir o'tkaza oladigan modellar ishlab chiqiladiki, ularning yordamida “o'zga” madaniyat vakillarining tili va urf-odatlariga nisbatan

munosabatlar dinamikasi tahlil qilinadi.

Tadqiqotchilar tomonidan etnomadaniy kompetentlik malakalarini o'zlashtirishning asosiy bosqichlari sifatida quyidagilar o'rganiladi: birinchidan, inson xulqining madaniy spetsifikasini idrok etish, ikkinchidan, o'z madaniyatiga xos spetsifikani yaratish, uchinchidan, kommunikativ jarayonlarda madaniy omillarning ahamiyatini anglash.

Fikrimizcha, yuqorida sanab o'tilgan omillarni o'rganish asosida, keyingi bosqichga – guruhlararo maqsadlarni shakllantirish, so'ngra esa, shaxsning ularga muvofiq shakllanish bosqichiga o'tish zarurati tug'iladi. Bu shaxsning madaniy kompetentligi shakllanishining to'rtinchi bosqichi bo'lar edi.

Kishilik jamiyati tarkib topgandan buyon til bilan birga shakllangan va uni to'ldirib kelayotgan noverbal vositalar turli nuqtai nazardan qator fanlarning o'rganish ob'ekti bo'lib keldi. Etnograflar noverbal vositalarni xalq, elat, millatning o'zligini ko'rsatuvchi urf-odatlar, adab shakllari, milliy ishoralar deb o'rgangan bo'lsalar, tarixchilar kishilar qo'llaydigan odatiy ishora yoki udumlarni xalq tarixi bilan bog'liq holda tadqiq etadilar. Psixologlar uchun noverbal vositalar aloqa-aralashuv jarayoni deb qaraladi va dialogik nutq ishtirokchilari muomalasida ishlatiluvchi ekstralingvistik asoslar so'zlashuvchilarning psixologik munosabatlari asosida tekshiriladi deb qaraydilar.

Inson fikr ifodalashda tildan foydalanar ekan, ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida tilga yondosh bo'lgan yordamchi (noverbal) vositalardan foydalanadi. Paralingvistik vositalar har bir kishilik jamiyatida kommunikatsiyada tabiiy ravishda nutqni kuzatib boruvchi va to'ldirib keluvchi ikkilamchi vosita bo'lgan. Odatda, paralingvistik vositalarga ovoz tonidagi ma'lum o'zgarishlar, kinetik harakatning barcha turlari hamda so'zlovchining gavda holatlari kiradi. Shuningdek, noverbal tilga so'zlovchining ichki emotsional holati haqida xabar beruvchi nokommunikativ xatti-harakatlarni ham kiritish lozim.

Paralingvistikaning madaniyat, etnografiya, etika, antropologiya, din, urf-odat va boshqa sohalar bilan uzviy bog'liqligi har bir tilda o'ziga xos ifodasini topadi. Milliy xarakterdagi noverbal vositalar ma'lum xalq, millat yoki elatlar aloqa-aralashuvida ishlatiluvchi ishoralar sanalib, ishlatilish ko'lami chegaralangani bilan xarakterlanadi. Bunday noverbal vositalar milliy xususiyatlarni o'zida gavdalantiradi, urf-odatlar, ritual va adab xatti-harakatlari bilan aloqador bo'ladi. Ijtimoiy xarakter kasb etib, har bir millatda muayyan urf-odatlar, lingvomadaniy xislatlar asosida har xillikni yuzaga keltiradi. Shuning uchun har qanday tilda mavjud bo'lgan noverbal vositalarni lingvomadaniy jihatdan yaxlitlikda o'rganish maqsadga muvofiq. Quyida kommunikatsiyada faol qo'llanuvchi ayrim ana shunday noverbal vositalar haqida fikr yuritmoqchimiz.

Tasdiq va inkorni bildiruvchi imo-ishora va mimikalarning ramziy belgilari Yevropa va sharq tillarida mos kelmaydi. Hatto slavyan xalqlari ichida ham rus va bolgarlar buni turlicha ifodalaydilar. Dunyoning aksar millatlarida "boshni tepadan pastga silkitish" biror fikrni ma'qullash, tasdiqlash yoki "ha" deb javob berish hisoblanadi. "Boshning gorizontal harakati" esa inkorni yoki "yo'q" ma'nosini

ifodalaydi. O‘zbek millati ham bundan mustasno emas. Biroq O‘rta yer dengizi atrofidagi ba’zi yerlarda – Afina greklarida, Janubiy Italiyaning ayrim hududlarida, neopalitanlar va kalabriylar orasida “boshning oldinga va pastga harakati” (oldinga-orqaga) tasdiq ma’nosini, boshning ushbu harakatga qarama-qarshi tomonga silkish (orqaga-oldinga) inkorni ifodalaydi. Inkori bolgarlarda ham kallani orqaga tashlash bilan, ovimbundliklarda ko‘rsatkich barmoqlarni ochgan holda qo‘llarini yuzi atrofida tebratish bilan, malaysk negritoslarida ko‘zlarni pastga qaratish (yumish) bilan ifodalanadi. O‘zbeklarda yelkaning bosh tomonga ko‘tarilishi va bosh bilan yelka orasidagi burchakning qisqarishi ham inkor va taajjub ma’nolarini ifodalaydi. Masalan,— Bo‘lmasa-chi, — dedi tunqotar yelkasini qisib, — men hozir arz qilay. Rahmat sizga (A.Qodiriy). Bunday kinetik belgilar rus va ko‘pgina Ovrupa xalqlarida taajjub va shubha ma’nolarini ifodalaydi. Mag‘riblik arablar qat’iy inkor ifodalash uchun o‘ng qo‘llarining bosh barmog‘ini tishlab, so‘ng qo‘llarini zudlik bilan oldinga qarab yo‘naltiradilar.

Jahonning turli xalqlari o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalarga keng yo‘l ochilgan hozirgi paytda yuqorida ko‘rsatilgan faktorlarni jiddiy o‘rganish ehtiyoji yana ham ortmoqda. Ayniqsa, adabiy aloqalar jarayonida bir tildan ikkinchi tilga ma’lum bir badiiy asarni tarjima qilishda ham tarjimon faqat shu xalq tilini bilish bilan kifoyalanib qolmay, balki ularning o‘zlariga xos bo‘lgan muomala madaniyati, imo-ishoralaridan ham xabardor bo‘lishi kerak bo‘ladi. Ishoralar va ularning verbal semantikasini bilgandagina tarjimon tarjima qilinayotgan tilning ishoralar fondidan muqobil ishorani topib ishlatishi mumkin. Masalan, Xat yozib tur, - dedi dadam. Bosh irg‘ab ko‘chaga chiqdim (O‘.Umarbekov). Yuqoridagi matnda “bosh irg‘ab” konstruksiyasi o‘zbek xalqi orasida tarqalgan rozilik, tasdiq ma’nosini ifodalovchi imo-ishorani aks ettiradi. Agar u bolgar tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, tarjimada butunlay teskari ma’noni – xat yozmaslik ma’nosini ifodalaydi. Chunki bolgarlarda yuqoridagi imo-ishora inkor ma’nosini bildiradi. Tarjimada uni bolgarlarda ham xuddi shunday ma’noni bildiruvchi imo-ishoraga almashtirishga to‘g‘ri keladi. Demak, noverbal vositalar sistemasini tadqiq etish tarjima san’atidagi ayrim kemptik joylarni to‘ldirar ekan.

Amerikaliklarda muloqot jarayonida har qanday holatda ham tabassum qilib turish o‘ziga xos qonuniyatdir. Bu holat ulardagi “keep smiling” – “tabassumingizni saqlang” iborasida ham aks etadi. Yaponlar esa hatto yomon xabarni ham tabassum bilan yetkazadi. Bunday holat (yomon xabarni ham tabassum bilan yetkazish) boshqa millatlar madaniyatida, xususan, o‘zbek va ruslarda hurmatsizlik yoki ahmoqlikka yo‘yiladi.

Janubiy Amerika aholisi muloqot paytida qo‘l harakatlari juda keng foydalanadi. Ular uchun bu fikrni suhbatdoshiga yetkazib berishda qo‘shimcha

vosita hisoblanadi. Aksincha, Shimoliy Yevropada yashovchi xalqlar uchun esa suhbat davomida qo'llarni ko'p harakatlantirmaslik xos. Yaponlarda muloqot asnosida qo'llarni ko'p harakatlantirish haqiqatni yashirish yoki yolg'on gapirishga urinish hisoblanadi va bunday xatti-harakatlar odobsizlik sanaladi. O'zbeklarda ham muloqot davomida qo'l harakatlaridan unumli foydalaniladi, biroq qo'lni bigiz qilish, paxsa qilish (- Ayb o'zingizda! – dedi qo'lini bigiz qilib (A.Qahhor)) kabi harakatlar suhbatdoshiga nisbatan hurmatsizlik hisoblanib, do'q, qo'rqitish ma'nolarini ifodalaydi. Ko'rsatkich barmoqni bigiz qilish barcha millat va mamlakatlarda salbiy reaksiyani keltirib chiqaradi.

O'zbeklar barmog'i bilan "bir, ikki, uch..." deb sanaganlarida o'ng qo'li yordamida chap qo'l barmoqlarini (bosh barmoqdan boshlab) birma-bir bukadilar. Bir qancha Yevropa mamlakatlarida esa huddi shunday holatda musht qilib bukilgan barmoqlar birma-bir yoziladi, ammo ikkinchi qo'l ishga solinmaydi. Shunisi qiziqki, ruslar sanoqni chimchaloqdan, yevropaliklar esa bosh barmoqdan boshlaydilar. Ruslar o'z nutqini ma'nodor qilish uchun faqat bitta qo'l bilan (chap yoki o'ng) ishora qilsalar, yevropaliklar ikki qo'llarini baravar harakatga keltiradilar.

Qo'lini musht qilib bosh barmog'ini ko'tarish Britaniya, Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlarida mashina to'xtatishda hamda "hammasi joyida" ma'nolarini ifodalashda foydalaniladi. Gretsiyada bu belgi "e bore, toshingni ter" ma'nosini anglatadi. Germaniyada bu belgi orqali yana bitta ichimlik buyurtma beriladi. O'zbeklarda u "yaxshi", "zo'r", "durust" ma'nolarini ifodalaydi. Masalan:

- To'laganxo'ja degan o'g'li bor emish...

- Vo! – Sartarosh mashina bandiga tiqilgan bosh barmog'ini dikkaytirib ko'rsatdi. – Meravoy bola. (O'.Xoshimov)

Bosh va ko'rsatkich barmoqlarining uchini bir-biriga birlashtirish (Okey) belgisi barcha ingliz tilida gaplashuvchi xalqlarda "hammasi joyida" ma'nosini, Fransiyada nol yoki "hech narsa", Yaponiyada "pul", ayrim O'rta yer dengizi xalqlarida erkak kishiga nisbatan "haqorat" ma'nolarida ishlatiladi. O'zbeklar muloqotida bu kinetik belgidan deyarli foydalanilmaydi.

Yevropaliklar o'zi haqida gapira turib qo'lini ko'ksiga qaratadi, yaponlar esa ushbu holatda qo'lini burniga qaratadi. Italiyaliklarda ko'rsatkich barmog'i bilan burniga asta urib qo'yish – "ehtiyot bo'ling, oldinda havf bor" degan axborotni ifodalasa, inglizlarda – sirlilik, yashirinlikni ifodalaydi. Bu belgi Gollandiya va Avstriyada "toshingni ter" degan ma'noni bildiradi. Ba'zi hollarda qo'l bilan burunni berkitish qo'rquv va ishonqiramaslikni ifodalaydi. O'zbeklarda barmoq bilan burunning uchiga tegish vaziyatdan kelib chiqib, "ehtiyot bo'ling", "sirlilik", "jimlik" ma'nolarida qo'llanishi mumkin.

Qo'l berib ko'rishish ham turli millat va madaniyatlarda turlicha amalga oshiriladi. Shimoliy Yevropa aholisi qo'l berib ko'rishganda bir-birlarining qo'llarini juda qisqa muddat qisishadi va darhol qo'yib yuborishadi. Janubiy Yevropa, Markaziy va Janubiy Amerikada esa uzoq muddat qo'l siqishish odatiy holdir. Hattoki qo'l berib ko'rishish asnosida chap qo'l bilan suhbatdoshning qo'lini yoki bilagini ushlash ham ko'p uchraydi. Afrika davlatlarida, odatda, qo'l uchida yengil ko'rishiladi [7.105]. O'zbeklarda qo'l berib ko'rishish qisqa bo'ladi.

Lekin qat'iy va g'ayratli qo'l siqish yengil va yumshoq qo'l siqishdan afzal hisoblanadi. Alohida hurmat belgisi sifatida ikki qo'l bilan ko'rishiladi. Masalan,— Dastasha gir, — dedi Rahim. Sharif bilan Qobilg'a ikki qo'lini cho'zib, ular ikkisi ham iljaygan ko'yi qo'llarini berdilar (A.Qodiriy). Ikki qo'llab ko'rishish Shimoliy Amerika mamlakatlarida aggressiya va ustunlik belgisidir. Yana bir madaniyatimizga xos jihat shuki, yoshi yoki mavqei yuqoriroq shaxs ko'rishish uchun qo'l uzatmasa, boshqa taraf qo'l uzatmaydi. Xuddi shunday holat sharq xalqlarida ayollar bilan ko'rishishda ham o'ziga xoslik kasb etib, ayollar qo'l uzatmasa, so'rashilmaydi.

G'arb davlatlarida suhbatdosh bilan vaqti vaqti bilan “ko'z urishtirib turish” juda muhim hisoblanadi. Chunki shu orqali inson suhbatdoshining o'ziga munosabatini ilg'ab turadi. O'rta sharq yoki arab o'lkalarida bir jins vakillarining bir-biriga qattiq tikilib turishi ular o'rtasidagi ishonchni namoyon qiladi. Huddi shu mamlakatlarda bunday qarashning qarama-qarshi jins vakillari o'rtasida ro'y berishi odobsizlik va hattoki haqorat hisoblanadi. Afrika va Lotin Amerikasida yashovchi millatlar uchun birovga qattiq tikilish, uni kurashga chorlash hisoblanadi. Yapon millati vakillari iloji boricha bir-birlarining ko'zlariga tik qaramaslikka harakat qilishadi. Agar zarurat yuzasidan qarashsa ham, odatda, bunday qarash juda qisqa bo'ladi [7.104]. O'zbeklarda esa insonning ko'ziga tik qarash yoki unga uzoq tikilish odobsizlik sanaladi. Ko'zini olaytirib, lo'q qilib qarash (So'fi ular uyga kirib olguncha eshik oldida bo'zarib-gezarib turdi (Cho'lpon)) “g'azab”, “nafrat” ma'nolarini ifodalaydi. Xullas, inson tana a'zolari harakatlari orqali ifodalanuvchi ma'nolarni o'rganish tarjimashunoslik, gender tahlil, lingvomadaniy tadqiq kabi sohalarida to'g'ri xulosa chiqarishga olib keladi.

Fikr ifodalashdagi umumiy fonatsion vositalarga ma'lum xalq vakillarining o'ziga xos talaffuzi uchun xarakterli xususiyatlar kiradi. Islom dini o'z ta'sirini o'tkazgan O'rta Osiyo xalqlari ayollaridagi tobelik, andisha ularning o'z fikrini past ovozda ifodalashini odatga aylantirgan. Natijada ularning nutqlarida tobelik, mutelik ifodalovchi ovoz ohangi hukmron bo'lgan. Masalan: - Yoshlik qilibsiz, aylanay. Bilmabsiz. U ashulachi qizning dovrug'i dunyoni bosdi... Hammaning og'zida o'sha (Cho'lpon).

Ovozning sifati bilan bog'liq parafonetik vositalar g'arb va sharq tillarida juda katta farq qiladi. Bu farqni rus, yapon va boshqa tillarda ham kuzatish mumkin. Ovoz to'ni, intonatsiya, to'xtam, tovushning cho'ziq-qisqaligi kabi fonetik konsept sistemasi universaliga bo'lishdan tashqari individuallik ham kasb etib, nutq pragmatikasini kengaytiradi.

Paralingvistik vositalarning turli nutq uslublarida qo'llanishi ham turlichadir. Ular badiiy adabiyotda ko'p uchraydi va bu tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Chunki paralingvistik vositalar, avvalo, milliy ruh va urf-odatlar bilan bog'lanadi hamda unda nutq odobi va madaniyat belgilari ham o'z ifodasini topadi. O'zbek, rus va ingliz aniqlangan. Ayniqsa, dramaturgiyada, insonning hatti-harakati tillarida paralingvistik vositalarni qiyoslash natijasida ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish doim ham mumkin emasligi, imo-ishorasi, mimikasi va ovozning turli o'zgarishlari katta ahamiyatga egadir. Tarjimada ularni to'g'ri bera olish uchun har ikki xalqning tili, milliy odatlari va madaniyatini chuqur o'rganish

zarur. Imo-ishoralar fikr ifodalashda nutq uchun yordamchi vosita bo'lish bilan birga ma'lum bir xalq o'ziga xos mentalitetining yorqin ifodasidir. Shu jihatdan ham paralingvistik vositalarni o'rganishda lingvokulturologik yondashuv dolzarblik kasb etadi. Kommunikantlar ma'lum tilni to'la bilgan bo'lsalar-da, milliy madaniyatlaridan, urf-odatlaridan, milliy shakllangan holatlardan bexabar bo'lsalar, ular bir-birlarini to'liq tushunib yetolmaydilar. Shuning uchun ham har bir xalq imo-ishora birliklarini alohida-alohida o'rganish xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishiga katta yordam beradi va shaxslarda paralingvistik madaniyatning shakllanishida ahamiyat kasb etadi.

Til kompetensiyasi o'quvchidan o'zi mansub bo'lgan yoki o'rganayotgan til va uning me'yorlarini bilishni taqozo qiladi. Demak, til kompetensiyasi u yoki bu til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir. Ona tili o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv yoshlarni til haqidagi bilimlar bilan birgalikda, muammoli vaziyatlarda bu bilimlardan o'rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun ham ona tili o'qituvchisining bosh vazifasi faqat bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash emas, balki bu bilimlarga ega bo'lish bilan birga ulardan muammoli vaziyatlarda o'rinli foydalanish malaka va ko'nikmasiga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim.

1-topshiriq. Kognitiv tilshunoslik: O'quvchilarni tahliliy va ijodiy fikrlashga undash

Mashg'ulot mavzusi: Ma'no tushunchasi va metafora.

Usul: Interfaol

- **Vazifa:** O'quvchilarga oddiy matn yoki iboralar beriladi. Ular ushbu iboralarda yashiringan metaforalarning tahlilini qilishadi.
- **Mashqlar:**
 - o Berilgan matn yoki iboradagi asosiy ma'no va kontekstni tushuntirish.
 - o Metaforalar yoki majoziy iboralar yordamida yangi gaplar tuzish.
 - o Turli madaniyatlarda bir xil metaforaning qanday talqin qilinishini muhokama qilish.

Natija: O'quvchilar ma'no tuzilishini kognitiv jihatdan tushunishni o'rganadi va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

2-topshiriq. Pragmatik kompetensiya: Kontekstga mos muloqot

Mashg'ulot mavzusi: Niyat va kontekst.

Usul: Interfaol

- **Vazifa:** Berilgan vaziyatlar bo'yicha turli kommunikativ maqsadlarni ifodalovchi iboralarni ishlab chiqish.
- **Mashqlar:**
 - o Bitta gapni turli kontekstlarda qanday ishlatish mumkinligini ko'rsatish.
 - o "So'zlar ortidagi ma'no"ni aniqlash bo'yicha muloqot tahlili.
 - o O'quvchilarga shartli ravishda noto'g'ri ishlatilgan iboralarni to'g'ri shaklda takrorlashga imkon berish.

Natija: O'quvchilar kontekst va intonatsiya bilan bog'liq nozik pragmatik farqlarni tushunishni o'rganadi.

Mashg'ulotni olib borish usullari:

1. **Guruhli muhokamalar:** Har bir mavzu bo'yicha kichik guruhlarda ishlash orqali fikr almashish.
2. **Rolli o'yinlar:** Harakat orqali pragmatik va sotsiolingvistik masalalarni amaliy o'rganish.
3. **Audio yoki video tahlillar:** Muloqot namunalarini tinglash va ularni tahlil qilish.
4. **Interaktiv testlar:** Turli kontekstlarga mos ravishda iboralarni tanlash yoki to'ldirish.

Testlar

Tinglab tushunishga mo'ljallangan mashqlar sistemasi maqsadiga ko'ra necha turga bo'linadi?

- 3
- 4
- + 2
- 5

Nutq mashqlari asosan qanday vazifani o'tashga mo'ljallangan?

- + kommunikativ
- umummilliy
- umummadaniy
- lisoniy

Nutq faoliyati qanday shaklda ro'yobga chiqadi?

- og'zaki
- yozma
- + og'zaki va yozma
- to'g'ri javob yo'q

Og'zaki nutq qanday turlardan iborat?

- + gapirish va tinglab tushunish
- gapirish
- eshitish
- tinglab tushunish

Yozma nutq qanday turlardan iborat?

- eshitish
- gapirish
- tushunish

+ o'qish va yozuv

Pedagogik muloqotda tez-tez uchrab turadigan „metodika“ terminining nechta ma'nosi bor?

- 4ta
- + 3ta

- 5ta

- 6ta

1975- yilda chop etgan o'zbek maktablari lug'at minimumida qancha lug'at birligi bor?

- 1578

- 1456

+ 1645

- 1654

Aralash metodlar nechanchi asr boshlarida tarjima va to'g'ri metodlar qorishmasi sifatida vujudga keldi?

+ XIX asr oxiri -XX

- XX asr oxiri XI

- XVIII asr oxiri XIX

- to'g'ri javob yo'q

Nazorat qilish muallim vazifalaridan nechinchisidir?

- 2

- 8

- 5

+ 3

Qaysi asning nechinchi yillaridan boshlab onglilik prinsipi chuqur ilmiy va eksperimental tarzda tadqiq etildi?

- XIX asming 60- yillaridan

+ XX asming 60- yillaridan

- XVIII asming 60- yillaridan

- XIX asming 50- yillaridan

Kompetensiya so'zining ma'nosi?

+ Erishmoq

- fikrlash

- tinglash

- gapirish

Tinglab tushunish mashqlari necha turga bo'linadi?

- 4

- 5

- 1

+ 2

Nutqiy kompetensiya - bu ?

+ tinglab tushunish, so'zlash, o'qish,yozish

- yangilik kiritish

- gapirish

- hammasi to'g'ri

Qaysi nutq aktiv fikrlashni talab qiladi, bunday nutq og'zaki va yozma shaklda amalga oshiriladi?

- ichki nutq

+ tashqi nutq

- passiv nutq
- barchasi to'g'ri

Og'zaki nutq ichki shaklda yuzaga chiqishi necha turga bo'linadi?

- + 2
- 3
- 4
- 1

O'qitish metodikasi tarixiga nazar tashlasak o'tgan asrning nechinchi yillariga kelib, tinglash nutq faoliyatining turi sifatida atroflicha tadqiq etila boshlandi?

- + 60-yillarga
- 50-yillarga
- 55-yillarga
- 80-yillarga

Birinchi mexanizmni kimlar nutqni idrok etish, deb nomlaganlar?

- pedagoglar
- psixologlar
- + ruhshunoslar
- tilshunoslar

Juft nutqni o'rgatishning necha bosqichlari ma'lum?

- 2
- + 3
- 5
- 4

Antisipatsiya - bu?

- + oldindan fahmlash
- tahmin qilish
- mantiqiy tushunish
- fikrlash

Pedagogik muloqotda tez-tez uchrab turadigan "Metodika" tushunchasining nechta ma'nosi bor?

- + 3 ta
- 4 ta
- 2 ta
- 5 ta

Til materiali odatda qanday minimumlardan iborat?

- leksik
- grammatik
- talaffuz
- + barcha javoblar to'g'ri

Gapirishning nechta psixofiziologik mexanizmlar mavjud?

- 3
- 4
- 5
- + 6

Monologik nutq qanday nutq?

- ikki kishi o'rtasidagi nutq
- yozma nutq
- + bir kishining ko'pchilikka qaratilgan fikrlarining ifodasi
- faol nutq

Og'zaki nutq tinglovchiga qanday yetib boradi?

- + pauza,urg'u,intonatsiya orqali
- abzaslar, paragraflar, har xil ajratishlar orqali
- tashabbuskorlik orqali
- a va b avoblar to'g'ri

Nutqni idrok etish va hosil qilish haqidagi fan?

- + Psixolingvistika
- Fiziologiya
- Psixologiya
- Ekstralingvistika

Operatsion jihatlar nima?

- alohida jihatlar
- + til materiali ishtiroki
- til birligi
- fikr bayoni

Verbal ta'riflanadigan qonunlar necha guruhga bo'linadi?

- 4
- 5
- + 3
- 6

Tajriba sinovli metod necha bosqichli?

- 5
- + 4
- 2
- 3

Tafakkur hodisasi nimalardan tashkil topadi?

- ong
- fikr
- o'y xayollar
- + tushunchalar

Ma' nosi har xil, tovush shakli esa o'xshash so'zlar nima deb ataladi?

- + omofonlar
- tipologiya
- distributatsiya

Gapirish va tinglab tushinish qanday nutq?

- + og'zaki nutq
- yozma nutq
- nofaol nutq
- barcha javoblar to'g'ri

Tilga oid mashqlar qanday turlarga bo'linadi?

- leksik
- grammatik
- talaffuzni tinglash
- + barcha javoblar to'g'ri

Biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmuyiga nina deyiladi?

- + metodika
- anologiya
- vizual
- didaktika

Amerikalik olimlar P.Roberts ma'lumotiga kora yer sharining necha foizi chap qo'lda yozadi?

- 25%
- 33%
- + 30%
- 31%

Ta'limning umumiy nazariyasi bu-.....?

- analogiya
- + didaktika
- metodika
- simtoziya

Lingvistik asoslar necha guruhga bolinadi?

- + 3ta
- 4ta
- 2ta
- 5ta

Vizualizatsiya nima?

- savol javob musobaqasi
- o'yin, tomosha
- + a va b javoblar to'g'ri
- mahorat

